<b>№</b>	<b>List of shareholders</b>	<b>Share in authorized capital (mln UZS)</b>	<b>Share (%)</b>
1	Total legal entities (3,817 shareholders)	4,588,704.79	99.13
	Including shareholders with a share of 1% or more		
1.1	Fund for Reconstruction and Development of the Republic of Uzbekistan	2,415,891.98	52.19
1.2	National Investment Fund of the Republic of Uzbekistan	1,388,682.58	30
1.3	Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan	623,994.10	13.48
1.4	JSC “O‘ztransgaz”	56,051.93	1.21
1.5	Other legal entities (3,813 shareholders)	104,084.21	2.25
2	Total individuals (36,328 shareholders)	40,237.14	0.87
	Including shareholders with a share of 1% or more		
2.1	Other individuals	40,237.14	0.87
<b>Total</b>	<b>Total shareholders: 40,145</b>	<b>4,628,941.93</b>	<b>100</b>

The presented data indicate a high concentration of the bank's capital in the hands of legal entities, which account for more than 99% of the authorized capital. The key shareholders are state institutional structures, indicating the significant role of the state in forming the bank's capital base and determining its strategic development directions.

The largest share belongs to the Fund for Reconstruction and Development of the Republic of Uzbekistan, which controls more than half of the bank's authorized capital. A significant portion is also concentrated in the National Investment Fund and the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. Such a structure indicates the preservation of dominant state participation in the bank's capital.

The contribution of individuals remains insignificant and accounts for less than 1% of the capital, which shows the low share of retail investors in the ownership structure. This is typical for banks with state participation, where key share packages are concentrated among institutional owners.

The capital structure demonstrates a high level of ownership concentration, which ensures management stability, but at the same time may limit the level of market competition and participation of private investors. Under the conditions of ongoing economic reforms, further development of the stock market and expansion of the circle of private investors may contribute to diversification of the ownership structure and improvement of corporate governance efficiency.



**Total assets of JSC “Uzbek Industrial and Construction Bank” and their annual growth rates in 2021–2025**

The analysis of statistical data for the period 2021–2025 indicates a stable upward trend in the total assets of JSC “Uzbek Industrial and Construction Bank.” If in 2021 the total assets of the bank amounted to about 31 trillion UZS, by 2025 this indicator had exceeded 63 trillion UZS, which represents almost a twofold increase during the analyzed period.

In 2022, asset growth amounted to approximately 15–16%, which can be explained by the expansion of the credit portfolio and an increase in the financing of investment projects in the industrial and infrastructure sectors. A particularly significant increase was observed in 2023, when assets grew by almost 37%. This sharp rise was associated with the intensification of investment activity, the growth of corporate lending, and the expansion of operations related to attracting external financial resources.



In 2024–2025, the growth rate of assets slightly decreased; however, the positive dynamics were maintained. The slowdown in growth can be explained by general processes of stabilization in the financial market, stricter requirements for the quality of credit portfolios, and a more cautious lending policy of banks in conditions of global economic uncertainty. Nevertheless, the overall volume of assets continued to increase, which indicates that the bank has maintained strong positions in the market.

From a scientific and economic perspective, the observed dynamics indicate a gradual strengthening of the bank's financial base, an increase in its investment attractiveness, and the expansion of its operational scale. The growth of assets also reflects the bank's active participation in financing large economic projects and supporting the real sector of the economy.

The credit portfolio is one of the key components of a bank's assets, reflecting the level of its lending activity, the degree of diversification of the client base, as well as the structure of income and risks. The analysis of the dynamics of the credit portfolio of JSC "Uzbek Industrial and Construction Bank" for the period 2021–2025 makes it possible to assess the scale of credit expansion, the stability of the bank's financial policy, and the influence of macroeconomic factors on banking activities.

During the analyzed period, a steady growth in lending volumes was observed, driven by the expansion of financing for large investment and infrastructure projects, the development of corporate lending, and the increase in the retail segment.

#### REFERENCES

1. Mirzaev, B.H. Methods for Evaluating the Effectiveness of Corporate Governance. – Tashkent, 2022.
2. Khudoyberdiev, A.J. Corporate Governance and Financial Stability. PhD Dissertation in Economics. – Tashkent, 2023.
3. Tukhtaev, R.Sh. Optimization of Capital Structure in Joint-Stock Companies. Journal of Financial Analysis, 2022, No. 3.
4. Tricker, B. Corporate Governance: Principles, Policies and Practices. Oxford University Press, 2019.
5. OECD. Corporate Governance Factbook 2023. Paris: OECD Publishing, 2023.
6. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance. Paris: OECD Publishing, 2023.
7. World Bank. Corporate Governance of State-Owned Enterprises: A Toolkit. Washington, DC: World Bank, 2020.
8. IMF. State-Owned Enterprises and Fiscal Risks. Washington, DC: International Monetary Fund, 2021.
9. Asian Development Bank. Corporate Governance Reforms in Developing Asia. Manila: ADB, 2022.
10. PwC. Corporate Governance and Transparency Report. 2023.



**O'ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIDA TADBIRKORLIK**

**Ashurova Maftuna Ortiq qizi**

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**

**Raqamli iqtisodiyot kafedrası stajyor-o'qituvchisi**

[maftuna.ashurova.00@mail.ru](mailto:maftuna.ashurova.00@mail.ru)

**Olimova Mohira Odiljonovna**

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**

**Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Biznesiboshqarish yo'nalishi 1-bosqich talabasi**

[mohiraodiljonovna2007@gmail.com](mailto:mohiraodiljonovna2007@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tutgan o'zni tahlil qilinadi. Muallif tomonidan tadbirkorlik subyektlarining Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, aholi bandligini ta'minlashdagi ijtimoiy funksiyalari va sohadagi so'nggi institutsional islohotlar yoritib berilgan. Shuningdek, xususiy sektor faoliyatini yanada rag'batlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, tadbirkorlik, YaIM, kichik biznes, ijtimoiy taraqqiyot, investitsiya muhiti, kambag'allikni qisqartirish, litsenziyalash.

**ENTREPRENEURSHIP IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF  
UZBEKISTAN**

**Maftuna Ortiq qizi Ashurova**

**Intern-Lecturer, Department of Digital Economics, Denov Institute of Entrepreneurship and  
Pedagogy**

[maftuna.ashurova.00@mail.ru](mailto:maftuna.ashurova.00@mail.ru)

**Mohira Odiljonovna Olimova**

**1st-Year Student, Business Management Program, Faculty of Entrepreneurship and  
Management, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy**

[mohiraodiljonovna2007@gmail.com](mailto:mohiraodiljonovna2007@gmail.com)

**ABSTRACT**

This article analyzes the role of small businesses and private entrepreneurship in the modernization of Uzbekistan's economy. The authors examine the contribution of entrepreneurial entities to the country's Gross Domestic Product (GDP), their social functions in ensuring employment, and the latest institutional reforms in the sector. Furthermore, the article proposes scientific and practical recommendations to further stimulate private sector activity.

**Keywords:** New Uzbekistan, entrepreneurship, GDP, small business, social development, investment climate, poverty reduction, licensing.

**ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ  
УЗБЕКИСТАНА**

**Мафтуна Ортик кизи Ашурова**

**Стажёр-преподаватель, кафедра цифровой экономики, Деновский институт  
предпринимательства и педагогики**

[maftuna.ashurova.00@mail.ru](mailto:maftuna.ashurova.00@mail.ru)

**Мохира Одильжонова Олимова**

**Студентка 1 курса, направление «Управление бизнесом», Факультет предпринимательства и  
управления, Деновский институт предпринимательства и педагогики**

[mohiraodiljonovna2007@gmail.com](mailto:mohiraodiljonovna2007@gmail.com)



## АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль малого бизнеса и частного предпринимательства в условиях модернизации экономики Узбекистана. Авторы рассматривают вклад субъектов предпринимательства в валовой внутренний продукт (ВВП), их социальные функции по обеспечению занятости, а также последние институциональные реформы в данной сфере. Кроме того, в статье предлагаются научно-практические рекомендации по дальнейшему стимулированию деятельности частного сектора.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, предпринимательство, ВВП, малый бизнес, социальное развитие, инвестиционный климат, сокращение бедности, лицензирование.

## KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda tadbirkorlik eng muhim strategik resurs hisoblanadi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Tadbirkor yo'lga to'sqinlik qilish- davlat siyosatiga xiyonat qilishdir". Zero, iqtisodiy erkinlik ijtimoiy farovonlikning kafolatidir.

Iqtisodiy barqarorlik omili: Hozirgi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari YaIMning 54% dan ortig'ini tashkil etmoqda. Bu ko'rsatgich iqtisodiyotning faqat xomashyoga emas, balki xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishga asoslangan xilma- xil tuzilmasi shakllanganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy himoya va bandlik: Ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim mezonlaridan biri – ish o'rinlari bilan ta'minlanganlikdadir. O'zbekistonda jami band aholining qariyb 75 foizi aynan tadbirkorlik sohasida mehnat qilmoqda. Ayniqsa, "mahallabay" ishlash tizimi orqali oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi daromadlarini oshirishda tub burilish yasadi.

So'nggi besh yillikda O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari soni 2 baravardan ziyodga ko'paydi. Agar 2016-yilda ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlar soni taxminan 230 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil boshiga kelib bu ko'rsatgich 500 mingdan oshdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi barqaror travishda 54-56% oralig'ida saqlanib bormoqda. Ilgari sanoat faqat yirik davlat korxonalari hisobiga bo'lgan bo'lsa, hozirda sanoat mahsulotlarining 27-30% i aynan kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Tadbirkorlik faqat daromad olish manbai emas, balki ijtimoiy muammolarni hal etishning asosiy qurolidir. Mamlakatimizda jami ish bilan band aholining 76% dan ortig'i xususiy sektorda mehnat qiladi. Har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha "Hokim yordamchilari" institutining joriy etilishi natijasida 2023-yilning o'zida 2 milliondan ortiq aholi doimiy va mavsumiy ish bilan ta'minlandi. "Imtiyozli kreditlar" hisobiga xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlik faolligi 35% ga oshdi.

Tadbirkorlik muhitini yaxshilashda quyidagi qadamlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi: QQS stavkasining 15% dan 12% ga tushirilishi biznes ixtiyorida yiliga qo'shimcha 10 trillion so'm mablag' qolishiga imkon berdi. Tadbirkorlik faoliyatiga oid 132 ta ruxsat berish hujjatlari va litsenziyalar bekor qilindi. 20-avgust sanasining "Tadbirkorlar kuni" deb belgilanishi va davlat raxbari bilan ochiq muloqot tizimi yo'lga qo'yilgani sohasidagi muammolarni "birinchi qo'ldan" hal etish imkonini bermoqda.

O'zbekistonning zamonaviy taraqqiyot bosqichida tadbirkorlik shunchaki iqtisodiy faoliyat turi emas, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi eng asosiy tayanch ustuniga aylandi. YaIMdagi ulushi 50 foizdan yuqori ekanligi, mamlakat iqtisodiyoti tashqi xomashyo bozorlariga qaramlikdan bosqichma-bosqich xalos bo'layotganini va ichki ishlab chiqarish salohiyati ortayotganini ko'rsatadi. "Kambag'allikdan farovonlik sari" tamoyili doirasida tadbirkorlik aholining daromadlarini oshirish va ishsizlikni jilovlashda eng samarali



mexanizm ekanligini isbotladi. Ayniqsa, kichik biznes orqali ayollar va yoshlarning ijtimoiy faolligi oshishi jamiyatning umumiy rivojiga xizmat qilmoqda. Soliq yukining kamayishi va byurikratik to'siqlarning bartaraf etilishi investitsiya muhitidan tubdan yaxshilanadi. Biroq, raqobatbardoshlikni yanada oshirish uchun sohani to'liq raqamlashtirish va "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini keng joriy etish talab etiladi.

Taklif sifatida shuni aytish mumkinki, kelgusida kichik biznes vakillarini yirik sanoat korxonalarini bilan korporatsiya asosida bog'lash va ularning eksport geografiyasini kengaytirish O'zbekistonning jahon bozoridagi nufuzini yanada mustahkamlaydi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash - bu xalq farovonligini yuksaltirishga qaratilgan eng to'g'ri va istiqbolli yo'ldir.

### XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonning zamonaviy taraqqiyot bosqichida tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning tayanch ustuniga aylangan. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tarkibiy jihatdan diversifikatsiya etish va bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish jarayonlarida kichik biznes va xususiy sektor hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Yalpi ichki mahsulotda tadbirkorlik ulushining 50 foizdan yuqori darajada shakllanishi mamlakat iqtisodiyotining ichki resurslarga tayanib rivojlanayotganini hamda xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish sohalarida sog'lom raqobat muhiti qaror topayotganini anglatadi.

Shuningdek, tadbirkorlikning ijtimoiy funksiyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Aholi bandligining asosiy qismi aynan xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelayotgani, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va oilaviy tadbirkorlik shakllarining kengayishi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, "mahallabay" ishlash tizimi orqali hududlar kesimida aniq muammolarni hal etish mexanizmining joriy etilishi daromad manbalarini ko'paytirish va kambag'allikni qisqartirishda samarali natijalar bermoqda. Bu jarayon jamiyatning ijtimoiy qatlamlari o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirishga va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga zamin yaratmoqda.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan institutsional islohotlar – soliq yukining optimallashtirilishi, ortiqcha byurokratik to'siqlarning bekor qilinishi, litsenziyalash tizimining soddalashtirilishi hamda imtiyozli moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengaytirilishi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rag'batlantirdi. Natijada biznes subyektlari soni sezilarli darajada ortdi, sanoat ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi kengaydi va investitsiya muhiti yaxshilandi.

Biroq, global raqobat sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Kelgusida sohani chuqur raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi. Kichik biznesni yirik sanoat korxonalarini bilan kooperatsiya asosida bog'lash, klaster tizimini rivojlantirish va xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiyalash mamlakatning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uning institutsional asoslarini takomillashtirish O'zbekistonning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi. U nafaqat iqtisodiy o'sishning drayveri, balki aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy muvozanatni ta'minlash va barqaror taraqqiyotga erishishning eng samarali mexanizmi hisoblanadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –“O'zbekiston”, 2023
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida” (Yangi tahriri).
3. [www.review.uz](http://www.review.uz) –“Iqtisodiy sharh” jurnali elektron nashri.
4. [www.president.uz](http://www.president.uz) –O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
5. [www.strategy.uz](http://www.strategy.uz) –“Taraqqiyot strategiyasi” markazi rasmiy sayti.



## ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИДА САМАРАДОРЛИК БАҲОЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР БОҒЛИҚ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ ҚАРАШЛАР ТАҲЛИЛИ

**А.Н.Холиқулов**

СамИСИ Иқтисодий таҳлил ва статистика кафедраси мудири, и.ф.н., профессор

### АННОТАЦИЯ

Мақолада “ХизматREFE кўрсатиш корхоналарида самарадорлик баҳоловчи кўрсаткичлар боғлиқ назарий ва амалий қарашлар таҳлили, ҳамда мижозлар ва инвестор нуктаи назардан самарадорликни ифодаловчи кўрсаткичлар ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** Хизмат, хизмат кўрсатиш, хизмат кўрсатиш корхоналари, хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлиги.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АНАЛИЗУ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ

**А.Н. Холиқулов**

профессор, кандидат экономических наук, заведующий кафедрой экономического анализа и статистики Самаркандского института экономики и сервиса.

### АННОТАЦИЯ

В статье «Анализ теоретических и практических взглядов, связанных с показателями эффективности на предприятиях сферы услуг, а также показателей эффективности с точки зрения заказчиков и инвесторов».

**Ключевые слова:** Сервис, сервис, сервисные предприятия, эффективность сервисных предприятий.

## THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES TO THE ANALYSIS OF EFFICIENCY EVALUATION INDICATORS IN SERVICE ENTERPRISES

**A.N. Kholiqulov**

Professor, PhD in Economics, Head of the Department of Economic Analysis and Statistics, Samarkand Institute of Economics and Service (SamIES)

### ANNOTATION

The article "The analysis of theoretical and practical views related to performance indicators in service enterprises, as well as performance indicators from the point of view of customers and investors, is highlighted.

**Key words:** Service, service, service enterprises, efficiency of service enterprises.

Иқтисодиётнинг эркинлашуви, ислохотларнинг чуқурлашуви, турли инкироз ва иқтисодий беқарорликларнинг содир бўлиб туриши, рақобатнинг мавжудлиги ҳар бир хўжалик юритувчи субъектлар, хусусан, хизмат кўрсатиш корхоналарининг ҳам фаолияти самарадорлигини ошириш заруратини туғдиради. Чунки самарадорлик таъминланмаган жойда, фойда етарли даражада бўлмайти, фойда бўлмаган жойда эса мулкый (иқтисодий) ўсиш таъминланмайти ва бу ҳам бўлмаган жойда корхоналарнинг инкирозга юз тутиши, банкрот бўлиши тайин. Шу туфайли барча хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг самарадорлигини оширишга эришиш лозимдир.

Бирок, ушбу масала иқтисодий адабиётларда кам ёритилган. Хусусан, хорижлик олимлардан, Боден М., Милес И., Еиченгреен Б., Гупта П., Есченбач Ф., Хоекман Б., Триплетт Й. Е., Босвортх Б. П., Корцзынски М., Михалёв И. В., Полянин А. В., В.К. Романович, С.Н.Коробкова, И. В.Михалёв, А. В. Полянин, В.К. Романович, Л. М. Кликич, Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т.А. Туренко, Л. А. Сосунова, Д. В. Чернова, А.Я.Басс, Е. А. Разомасова, В.А. Плотников, М.Г. Иваненко, Д.Р. Хайруллина ва бошқалар томонидан тадқиқ этилган. Ушбу муаммоларни ўрганишга ўзбекистонлик олимлардан Б.А.Адукаримов, М.Қ.Пардаев, М.М.



Мухаммедов, Қ.Ж. Мирзаев, О.М. Пардаев, И.С.Тухлиев, Э.С.Файзиев ва бошқаларнинг хизмат кўрсатиш корхоналари иқтисодиётига бағишлаб дарсликлар, ўқув қўлланма ва бошқа ўқув ва илмий адабиётларни ёзганлар. Аммо ушбу асарларда хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар бир тизимга келтирилган ҳолда ифода этилмаган, шу билан биргаликда хизмат кўрсатиш корхоналарида самарадорлик ва уларни ифодаловчи ифодаловчи кўрсаткичларни таҳлил этишнинг йўллари умуман тадқиқ қилинмаган.

Биз хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар билан боғлиқ назарий ва амалий қарашларни таҳлил қилиб ва ўрганиб, ушбу масалани ҳал қилишга икки нуқтаи назардан қараш мақсадга мувофиқ, деган хулосага келдик. Биринчиси, самарадорликнинг классик таърифи ва умумметодологик асосига таянган ҳолда ёндошиш бўлса, иккинчидан хизмат кўрсатиш корхоналарининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда ёндошиш лозимлигидир. Булардан ташқари хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигига бир томондан миқдорлар ва иккинчи томондан, хўжалик юритувчи субъектлар нуқтаи назаридан қараш лозимдир.

Миқдорларнинг нуқтаи назаридан, хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини баҳолашда қуйидаги йўналишлар инобатга олинади:

- миқдорларга кўрсатиладиган хизматларнинг сони;
- уларни овқатлантириш;
- миқдорларга савдо хизматларини кўрсатиш;
- миқдорларга транспорт хизматларини кўрсатиш;
- миқдорларга дам олиш ва роҳатланиш учун зарур бўлган турли маданий хизматларни кўрсатиш;
- миқдорларга молиявий хизматларни кўрсатиш;
- миқдорларга маиший хизматларни кўрсатиш;
- миқдорларнинг хоҳиш истакларига қараб турли хил хизматларни кўрсатиш ва шу кабилар.

Бундай хизматларни юқори савияда сифатли ва самарадорликда кўрсатиш ва миқдорларнинг талабларини тўлиқ қондириш учун хизмат кўрсатиш корхоналари ходимлари (хизматчилари) профессионал малакага эга бўлишлари лозим. Ушбу ходимлар кўрсатилган хизмат турларини аъло бажариш билан бирга хушмуомала, мулойим, ўз кўрки ва тароватига эга, зийрак ва хушёр бўлишлигини ҳам талаб қилади.

Хизмат кўрсатиш корхоналарида самарадорликни баҳолашда иккинчи йўналиш бўйича қаралганда шуни инобатга олиш лозимки, хизмат кўрсатиш корхонаси эгаси ёки шу хўжалик юритувчи субъект шу соҳага қўйган инвестициясидан етарли даражада фойда олишга эришмоғи, мавжуд моддий-техника асосларидан самарали фойдаланмоғи, ходимларнинг юқори меҳнат унумдорлигига эришмоғи ва харажатлардан ҳам самарали фойдаланмоғи лозим. Булардан келиб чиқилмаган бўлса, хизмат кўрсатиш корхоналарида самарадорликни баҳолаш учун, бизнинг фикримизча, кўрсаткичлар тизимидан фойдаланиш мумкин бўлади. Бундай кўрсаткичлар тизимини тўртта гуруҳга бўлишни тавсия қиламиз:

- хизмат кўрсатиш корхоналарига қўйилган активлар самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар;
- хизмат кўрсатиш корхоналари моддий-техника асослари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар;
- хизмат кўрсатиш корхоналарида меҳнат самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар;

• хизмат кўрсатиш корхоналари харажатлари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар.

Буни қуйидаги чизма орқали ифодалаш мумкин (1-расм).



### **1-расм. Хизмат кўрсатиш корхоналари хўжалиги самарадорлигини хўжалик юритувчи субъектлар нуктаи назаридан ифодаловчи кўрсаткичлар**

Ҳар бир гуруҳ кўрсаткичлар ўз навбатида бир қанча гуруҳларни қамраб олади. Масалан, улардан бири хизмат кўрсатиш корхоналарига қўйилган активлар самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар. Бу гуруҳ кўрсаткичларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

- узоқ муддатли активлар рентабеллиги;
- жорий активлар рентабеллиги;
- умумий инвестициянинг копланиш коэффиценти.

Хизмат кўрсатиш корхоналари моддий-техника асослари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ҳам ўз навбатида бир қанча кўрсаткичларни қамраб олади. Хизмат кўрсатиш корхоналарининг хусусиятларидан келиб чиқиб, ушбу гуруҳ кўрсаткичларига қуйидагиларни киритишни тавсия қилинади:

- битта ўринга тўғри келадиган ўртача тушум;
- хизмат кўрсатиш корхоналари умумий моддий-техникаларидан фойдаланиш коэффиценти;
- хизмат кўрсатиш корхоналари умумий моддий-техникалари самарадорлиги коэффиценти.

Хизмат кўрсатиш корхоналарида меҳнат самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ҳам муҳим иқтисодий кўрсаткичлар сифатида ўз ўрнига эга. Мазкур гуруҳ кўрсаткичларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

- битта ходимга тўғри келадиган ўртача тушум (хизмат кўрсатиш корхоналари ходимларининг меҳнат унумдорлиги, қийматда);
- битта ходимга тўғри келадиган ўртача хизматлари сони (хизмат кўрсатиш корхоналари ходимларининг меҳнат унумдорлиги, натурал кўринишда).

Хизмат кўрсатиш корхоналарида яна бир муҳим кўрсаткичлардан бири, уларга жорий йилда сарфланган харажатлари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлардир. Ушбу гуруҳ кўрсаткичларга қуйидагиларни киритишни тавсия қиламиз:

- жорий йилда қилинган харажатлар рентабеллиги;
- ҳар бир кўрсатилган хизматларнинг таннари.



Тадқиқот жараёнида ушбу кўрсаткичларни аниқлаш, уларнинг ўзгаришига таъсир этувчи омилларни ҳисоблаш орқали ҳар бирининг яхшиланиши учун ички имкониятларни ахтариб топиш йўллари кўрсатиб бериш лозим бўлади. Бу масала хизмат кўрсатиш корхоналари иқтисодий фаолиятида ва ўқув жараёнида тингловчилар учун жуда муҳим. Чунки, хизмат кўрсатиш корхоналарида самарадорликни ифодаловчи кўрсаткичлар тизимли тарзда ишлаб чиқилмаган ва мос равишда амалиётда қўлланилмасдан келинаётган эди. Шу туфайли биз ишлаб чиққан мазкур тавсия нафақат назарий жиҳатдан муҳим, балки амалий жиҳатдан аҳамиятга молик масалалардан биридир.

Олиб борилган тадқиқотларимиз давомида шу нарса аниқ бўлдики, биз юқорида тавсия қилган кўрсаткичлар орқали хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини баҳолаш имкониятига эга бўламиз, ҳамда таҳлил қилинаётган хизмат кўрсатиш корхонасини самарадорлигин қайси йўللор орқали ошириш мумкинлиги кўрсатиш имкониятларига эга бўламиз. Бу кўрсаткичларни ўрганилаётган даврда самарадорлик ҳолатига амалий жиҳатдан баҳо бериш, хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлиги тўғрисида хулосалар чиқариш имкониятига эга бўламиз.

#### REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, PQ-104-son, 2022-yil 27-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. “O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishi”. Statistik to‘plam, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. “O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari”. Statistik to‘plam, 2025.
4. OECD. The Service Economy. Paris: OECD Publishing.
5. Peng Xinge. Tracing the Origin and Theoretical Exploration of Service Economics. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021.
6. Axmedjanov A.R. Criteria and indicators for improving the efficiency of labor resources in service enterprises. Economics and Education, 2019.
7. Akhmedjanov A.R. Competency-based Human Resources Management System at Service Enterprises. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 2020.
8. Samarkand Institute of Economics and Service materiallari. Xizmat ko‘rsatish sohasi va korxonalarida tarmoqlarida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining dinamik tahlili, 2023.
9. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti bo‘yicha o‘quv dasturi. Oliy ta‘lim uchun uslubiy material, 2025.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli xizmatlar qamrovi va hajmini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, PQ-162-son, 2023-yil 24-may.



**ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИДА СЕРВИС СИФАТИНИ ОШИРИШ  
ОРҚАЛИ САМАРАДОРЛИКНИ БАҲОЛАШНИНГ ИЛМИЙ ВА УСЛУБИЙ  
МАСАЛАЛАРИ**

**А.Н.Холиқулов**

*СамИСИ Иқтисодий таҳлил ва статистика кафедраси мудири, и.ф.н., профессор*

**АННОТАЦИЯ**

Мақолада “Мамлакатимизда хизматлар кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг асосий концептуал йўналишлари, ҳамда хизматларининг сифатига боғлиқ омиллар ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** Хизмат, хизмат кўрсатиш, хизмат кўрсатиш корхоналари, хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлиги.

**НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ  
ПОСРЕДСТВОМ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА СЕРВИСА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ  
СФЕРЫ УСЛУГ**

**А.Н. Холиқулов**

*профессор, кандидат экономических наук, заведующий кафедрой экономического анализа и статистики Самаркандского института экономики и сервиса (СамИСИ).*

**АННОТАЦИЯ**

В статье выделены основные концептуальные направления развития сферы услуг в нашей стране, а также факторы, связанные с качеством услуг.

**Ключевые слова:** Сервис, сервис, сервисные предприятия, эффективность сервисных предприятий.

**SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL ISSUES OF EVALUATING EFFICIENCY  
THROUGH IMPROVING SERVICE QUALITY IN SERVICE ENTERPRISES**

**A.N. Kholiqulov**

*Professor, PhD in Economics, Head of the Department of Economic Analysis and Statistics, Samarkand Institute of Economics and Service (SamIES)*

**ANNOTATION**

In the article, the main conceptual directions of the development of the service sector in our country, as well as the factors related to the quality of services, are highlighted.

**Key words:** Service, service, service enterprises, efficiency of service enterprises.

Мамлакатимизда амалга ошириляётган ислохотлар, ислохотлар учун эмас, балки инсонлар, уларнинг муносиб турмуш шароитини яхшилашга, ижтимоий ҳимоясини кучайтиришга қаратилганлигини Президентимизнинг ҳалқимиз фаровонлигини ошириш, камбағалликни камайтириш, аҳолини кексалик ёшида пенсия билан таъминлаш, уларни ижтимоий муҳофаза қилиш борасида узлуксиз ғамхўрлик қилиб келаётганлигида кўриш мумкин.

Мамлакатимизда амалга ошириляётган иқтисодий ислохотларни янада чуқурлаштириш, яширин иқтисодиётни камайтириш ва аҳолининг бандлик масаласини ҳал қилиш орқали камбағалликни қисқартириш каби муҳим тадбирларга қаратилган. Президентимизнинг айнан 2021 йил 22 апрель куни хизмат кўрсатиш соҳаси йўналишларини ривожлантириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши ўтказилди. Бу йиғилиш аҳолини иш билан таъминлаш ва уларнинг фаровонлигини оширишга қаратилган олдинги олиб борилган ишларни янада кучайтиришга ва мамлакатда ислохотларни чуқурлаштиришга қаратилган амалий тадбирлардан бири бўлди. Хизмат кўрсатиш соҳаси кенг қамровлиги билан иқтисодиётда, аҳоли турмуш даражасида муҳим ўринлардан бирини тутди. Хизмат



кўрсатиш соҳасида янги иш ўринларини яратиш, кам харажат билан, тез муддатда ташкил этиш мумкин, бундан ташқари қилинган харажатлар самарадорлиги ҳам юқоридир. Аҳоли даромадларининг реал ўсиши ҳам аввало хизматлар кўрсатиш соҳасида яққолроқ сезилади.

Мамлакатимизда хизматлар кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг асосий концептуал йўналишларини белгилаб олиш мумкин. Бу йўналишлар қуйидагилардир:

1. Хизматлар кўрсатиш соҳасида тадбиркорликнинг фаоллигини янада кучайтириш учун қулай шарт-шароит яратиш, хусусан, бу борадаги расмиятчилик тўсиқларини бартараф этиш.
2. Қишлоқ жойларда хизмат ва сервис соҳасини жадал ривожлантириш, хусусан, қишлоқ аҳолисига кўрсатилаётган хизматлар, биринчи навбатда, коммунал-маиший, уй-жойларни таъмирлаш ва куриш, сувдан фойдаланиш, ветеринария, қишлоқ хўжалик маҳсулотларини тайёрлаш ва машина трактор парклари соҳасидаги хизматлар ҳажми ва турларини янада ошириб бориш.
3. Коронавирус пандемияси бу соҳага салбий таъсир кўрсатди. Шу боис, тадбиркорларга турли хилдаги солиқ имтиёзлари, ҳамда субсидия ва бошқа имтиёзли кредитлар тақдим этиш орқали кўмак бериш.
4. Хавфсизлик талабларини қўйган ҳолда, одамлар гавжум жойларда, яъни аэропорт, темир йўл ва автовокзаллар ҳудудларида, магистрал йўллар ёқасида савдо ва хизмат кўрсатиш объектларини ташкил этиш орқали тадбиркорларни даромад олишини, аҳолини эса иш билан таъминлаш.
5. Мамлакатимизда анъанавий хизматлар турларини ривожлантириш, айрим бугунги кун талабига жавоб берадиган, аммо унитилиб кетилган хизмат турларини излаб топиш ва уларни тиклаш.
6. Хизматларининг янги истиқболли турларини, хусусан, туризм, юридик, консалтинг, банк, молия, суғурта, лизинг ва бошқаларни янада жадал равишда ривожлантириш.
7. Мамлакатимизнинг хизматлар экспортини кўпайтириш учун ушбу соҳа корхоналарининг ҳалқаро бозордаги хизматлар даражаси ва сифатини оширишга эришиш.
8. Энг муҳими, хизматлар кўрсатиш ва сервис соҳасида ишлайдиган кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, мижоз хизмат кўрсатиш корхонаси сервисидан фойдаланиш ёки фойдаланмаслиги унга кўрсатилган хизматнинг яхши ёки ёмонлигига, яъни сервиснинг сифатига боғлиқ. Биринчи марта мижозни яхши реклама, бой жиҳозлар ёки кенг турдаги таомномалар билан жалб қилиш мумкин. Аммо иккинчи марта мижоз персоналнинг профессионал ишлаши ва олдин унга кўрсатилган хизмат сифатининг юқорилиги учун келади.

Хизмат кўрсатиш корхонаси маъмурияти, хизматчилари ва мижозлари ўртасидаги ўзаро муносабатларни белгилаб берувчи асосий ҳужжатлардан бири «Хизмат кўрсатиш корхонаси хизматлари кўрсатиш қоидалари» ҳисобланади. Ушбу ҳужжатнинг «Хизмат кўрсатиш тартиби» бўлимида шундай деб қайд этилган: «Кўрсатилаётган хизматлар сифати шартнома талабларига жавоб бериши лозим. Агар шартнома бўлмаса ёки тўлиқ бўлмаса ушбу хизматларга одатда қўйиладиган талабларга жавоб бериши лозим.

Хизмат кўрсатиш корхонаси хизматларининг сифати бир қанча омилларга боғлиқ. Бу омилларга бизнинг фикримизча қуйидагиларни киритиш мумкин:

1. Моддий-техника базасининг ҳолати, яъни: хизмат кўрсатиш корхонаси биноларнинг қулай режалаштирилганлиги ва сифатли жиҳозланганлиги, замонавий жиҳозлар билан таъминланганлиги ва х.к.



2. Хизмат кўрсатишнинг илғор технологияси. Бунга: жамоат ва турар хоналарни тозалаш тартиби ва усуллари; мижозларни рўйхатга олиш ва улар билан ҳисоб-китоб қилиш, ресторан ва барларда овқатлар ва ичимликларни тайёрлаш рецептлари, савдо залларида хизмат кўрсатиш шакллари ва бошқалар киради.

3. Хизмат кўрсатувчи персоналнинг юқори даражада профессионалиги, унинг мижозга аниқ, тез ва маданиятли хизмат кўрсатишга қодирлиги ва тайёрлиги.

4. Хизмат кўрсатиш корхоналарида хизмат кўрсатиш сифатини бошқариш. Бунга сифат стандартларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш, персоналнинг малакасини муттасил ошириш, хизмат кўрсатиш корхонаси фаолиятининг барча жабҳаларида сервисини назорат қилиш, тўғрилаш, такомиллаштириш кабилар киради.

Хизмат кўрсатиш корхоналарида хизмат кўрсатиш сифатига таъсир кўрсатувчи омилларни чуқурроқ ўрганишни талаб қилади. Чунки ушбу кўрсаткичнинг даражаси бошқа жуда кўп иқтисодий-ижтимоий кўрсаткичларнинг ҳолати боғлиқдир.

Маълумки ҳар қандай ишда инсон меҳнати тадбиркорни фойда билан таъминлайдиган муҳим омил ҳисобланади. Аммо хизмат кўрсатиш соҳасида ушбу кўрсаткичнинг ҳажми бевосита меҳнатнинг миқдори ва сифатига боғлиқ. Кейинги пайтларда хизмат кўрсатиш корхоналарида инсон омилига катта эътибор қаратилмоқда.

Самарқанд шаҳрида жойлашган ўтказилган сўровларда хизмат кўрсатиш корхоналарини ривожлантириш учун асосий омил нима, деган саволга биринчи навбатда персоналнинг профессионалиги (57,8%), деб жавоб бердилар. Қолган барча омиллар 42,2 %ни ташкил қилади. Бундан кўриниб турибдики, хизмат кўрсатиш корхоналарининг рақобатбардошлиги бевосита унинг ходимларига ва улар томонидан кўрсатилаётган хизматларнинг сифатига боғлиқ экан.

Хизмат кўрсатиш корхонасида кўрсатиладиган хизматларнинг сифатига, лавозимидан қатъий назар, унда ишлайдиган барча ходимлар масъул бўлишини талаб қилади. Истеъмомчи катта тоқатсизлик билан яхшироқ хизмат кўрсатилишини кутади. Шу туфайли қайси хизмат кўрсатиш корхонасида ходимлар яхшироқ хизмат кўрсата олса, шу корхона рақобатчиларга нисбатан қулайроқ имкониятга эга бўлади ва шу субъект рақобатбардош бўлиши тайин.

Хизмат кўрсатиш корхонасида ходимлар яхши ва сифатли хизмат кўрсатиши энг аввало ишлаш учун қулай муҳит яратилишидан иборат. Ходимларга ишлаш учун қанчалик қулай муҳит яратилса, шунчалик самарадорлик ва сифат юқори бўлади. Иш учун қулай муҳит куйидагиларда иборат:

- кадрларни танлаш ва жойлаштиришнинг адолатли жараёнини ташкил этиш;
- ҳар бир иш жойида норма ва стандартлар бажарилишини баҳоловчи кўрсаткичлар белгиланган ёзма шаклдаги хизмат мажбуриятлари (мансаб инструкциялари) мавжуд бўлиши;
- хизматчилар малакасини оширишга эҳтиёжларни ва шарт-шароитларни хизмат бўйича кўтарилиш нуқтаи назаридан баҳолаш, иш ҳақини ошириш (разрядни ошириш);
- малакани доимий равишда ошириб боришни рағбатлантириш;
- вақти-вақти билан бутун персонал ишини текшириб туриш;
- барча даражадаги хизматларни рағбатлантириш дастури ва шартларини ишлаб чиқиш;
- хизматчиларни хизмат мансабларини кўтаришнинг расмий режаси, кўтарилишнинг шартларининг белгилаб қўйилишини таъминлаш;
- вақти-вақти билан иш ҳақини ошириш ва шу орқали мавжуд мансабларнинг рақобатбардошлигини сақлаш;



• рақобатбардошлигини сақлаш мақсадида имтиёзлар тизимини такомиллаштириб бориш;

• маъмурият учун мажбурий бўлган меҳнат келишмовчиликларини ҳал қилиш тартибини жорий қилиш.

Хизмат кўрсатиш корхонасида ҳар бир янги ходим ўзини корхонанинг ажралмас қисми сифатида ҳис қилиши, хўжаликнинг асосий стратегик вазифалари ва молиявий ҳолатини билиши керак. Агар хизмат кўрсатиш корхонасида юқори сифатли хизмат кўрсатишни таъминловчи тадбирлар аниқ бўлмаса, уни албатта шакллантириш лозим. Шундагина ҳар бир ходим ўзлари бажарадиган вазифаларни бажаришга киришганларида ўз мажбуриятларини чуқур англаши ва ҳис қилиши мумкин.

Ҳозирги пайтда ходимлар малакасини оширишга иложи борича кўпроқ эътибор қаратиш лозим. Чунки, мижозларнинг хизмат сифатига бўлган талаби узлуксиз ошиб бормоқда, сифат стандартлари ўзгармоқда, рақобат кучаймоқда. Бундай шароитда хизмат кўрсатишни юқори даражада сақлаш, янги стандартга тезкорлик билан мослашиш, уни амалга ошириш лозим бўлади. Шу туфайли персонални қайта тайёрлаш, уларнинг малакасини ошириш масаласи хизмат кўрсатиш корхонасининг маъмурияти диққат эътиборида ҳамиша бўлиши лозим.

Хизмат кўрсатиш корхоналарининг вазифаси тармоқ ичидаги эркин рақобат шароитида мижозни ўзига кўпроқ жалб қилиш ва жалб қилинган мижозларга сифатли хизмат кўрсатиб, биринчидан уларнинг хизматларга бўлган эҳтиёжини қондириш ва иккинчидан ҳар бир мижоздан кўпроқ турли сифатли хизматларни кўрсатиш эвазига кўпроқ маблағини хизмат кўрсатиш корхонасига қолдиришдан иборатдир.

#### REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. **Yangi O‘zbekiston strategiyasi.** – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **2021-yil 22-apreldagi xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi materiallari.**
3. Kotler P., Keller K. **Marketing Management.** – New Jersey: Pearson Education, 2016.
4. Lovelock C., Wirtz J. **Services Marketing: People, Technology, Strategy.** – Pearson Education, 2018.
5. Parasuraman A., Zeithaml V., Berry L. **A Conceptual Model of Service Quality and Its Implications for Future Research.** – Journal of Marketing, 1985.
6. Grönroos C. **Service Management and Marketing.** – John Wiley & Sons, 2007.
7. Abdullayev Yo., Qosimov B. **Xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyoti.** – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. **Xizmatlar sohasi statistik ma’lumotlari.** – stat.uz



**РИВОЖЛАНГАН МАМЛАКАТЛАРДА СЕРВИС СОҲАСИ РОЛИНИНГ  
ЎЗГАРИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР**

**А.Н.Холиқулов**

*СамИСИ Иқтисодий таҳлил ва статистика кафедраси мудири, и.ф.н., профессор*

**АННОТАЦИЯ**

Мақолада “Иқтисодиёт ривожланишида хизмат кўрсатиш соҳаси турлари, замонавий иқтисодиётда хизматлар соҳаси роли, ҳамда унинг ўзгаришига таъсир этувчи омиллар, сервис фаолиятини ривожлантириш йўналишлари кенг ёритиб берилган.

**Калим сўзлар:** *Хизмат, хизмат кўрсатиш, сервис, сервис фаолияти, ишлаб чиқариш сервиси, хизмат кўрсатиш соҳаси.*

**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЕ РОЛИ СФЕРЫ УСЛУГ В РАЗВИТЫХ  
СТРАНАХ**

**А.Н. Холиқулов**

профессор, кандидат экономических наук, заведующий кафедрой экономического анализа и статистики Самаркандского института экономики и сервиса (СамИСИ).

**АННОТАЦИЯ**

В статье подробно описываются виды услуг в экономическом развитии, роль сектора услуг в современной экономике, факторы, влияющие на ее трансформацию, а также тенденции развития услуг.

**Ключевые слова:** *Сервис, сервис, сервис, сервисная деятельность, производственные услуги, сервис*

**FACTORS INFLUENCING CHANGES IN THE ROLE OF THE SERVICE SECTOR IN  
DEVELOPED COUNTRIES**

**A.N. Kholiqulov**

Professor, PhD in Economics, Head of the Department of Economic Analysis and Statistics, Samarkand Institute of Economics and Service (SamIES)

**ANNOTATION**

The article describes in detail the types of services in the economic development, the role of the services sector in the modern economy, the factors affecting its change, and the trends in the development of services.

**Key words:** *Service, service, service, production activities, production services, service.*

Сўнгги 25-30 йил ичида жаҳон иқтисодиётида шунингдек турли давлатлар хўжалик амалиётида хизмат кўрсатиш соҳасининг роли ва аҳамияти сезиларли даражада ўзгариб кетди. Қуйида биз хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланишига объектив таъсир кўрсатувчи омилларни, шунингдек авваламбор айнан ривожланган давлатларнинг саноат ишлаб чиқаришга хос бўлган сифатли ўзгаришларни кўриб чиқамиз. Ривожланган давлатлар қаторига ҳозирги кунда энг аввало Ғарбий Европа, Шимолий Америка ҳамда Японияни давлатларини киритишади. Бу давлатларнинг замонавий саноат ишлаб чиқариши бир қатор қийин муаммолар билан дуч келяпти ва қуйидагилардан зарар кўряпти:

- Саноат ишлаб чиқаришнинг асоси бўлиб хизмат қилувчи қайта тиклаш учун яроқсиз бўлган кўпгина табиий ресурсларнинг емирилиб кетиши;
- Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришнинг иқтисодий ўсишини ва моддий ишлаб чиқаришнинг баъзи бир турларини секинлашиш суръатларининг умумий пасайиши;
- Ишлаб чиқаришни ривожлантирувчи нетривиал манбаларни излашни рағбатлантирувчи ички ва жаҳон бозорида рақобатнинг чуқурлашуви;
- Сурункали тус олаётган ишсизлик даражасининг ўсиши;



➤ Инновациялар ва юқори технологияларни ишлатиш билан меҳнатни ишлаб чиқаришни ўсишдан саноат корхоналари ходимларининг иш ҳақи даражасининг қолоқлиги.

Лотин Америкаси ва Осиё ривжланаётган мамлакатларида баъзи бир экологик жиҳатдан хавфли ва меҳнат сарфини кўпроқ талаб қиладиган маҳсулотлар жўнатиш билан ривожланган Ғарб мамлакатларининг йирик бизнесининг намоёндалари юқорида кўрсатилган муаммоларни ечиш учун изланишлари натижасида юзага келган ҳолатдан чиқиб кетиш йўлини топишган. Бунинг ўрнига энг ривожланган мамлакатларда фан-таракқиёт маҳсулотларини кенг жорий қилиш инфармацион компютерлар технологиялардан фойдаланишлардан бошланади, бу эса иқтисодга уларнинг пост индустриал характерини билдиради.

Иқтисодиётда бундай ўзгаришлар ижтимоий тузилишда шунингдек, ривожланган мамлакатларнинг аҳолисининг истеъмол талабида ва маданий йўналишида радикал ўзгаришларни келтириб чиқарди. Шундай қилиб, энди билим эгаллаш, юқори профессионализмга эришиш, кенг дунёқарашга эга бўлиш, ҳаётда омадли бўлиш замини сифатида ҳамда индивидуал ривожланиш учун энг муҳим восита сифатида қаралмоқда. Аҳоли биринчи даражали эҳтиёжларини (озик-овқат, кийим кечак ва шу қабилар билан боғлиқ) қондиришдан иккинчи даражали (хизмат кўрсатиш, ижтимоий, соғломлаштириш, рухий талаблар) эҳтиёжларини қондиришга қилинаётган ҳаражатлар ошиб бормоқда. Жамият онгида асосий қийматни кундалик ҳаётни ҳар томонлама яхшилаш зарурияти, турмуш ҳаётни оптималлаштириш, болаларни тарбиялаш жараёнининг тобора ривожланиб ҳамда такомиллашиб бориши, инсонларда умуман бўш вақт қолмаслигини таъминлайди.

Шундай қилиб инновацион ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш шароитида хизмат кўрсатиш соҳаси ривожланишининг илғор суръатларини нафақат баъзи бир миллий иқтисодиётда, балки бутун дунё иқтисодиётида тезлик билан ўсиш тенденциясига эга эканлигини кузатишимиз мумкин.

Хизмат кўрсатиш соҳасининг субъектлари жамоат талабларини инobatга олиб уларнинг эҳтиёжларини қондиришга қаратилган бўлади. Натижада сўнгги учун йиллар мобайнида дунёнинг кўпгина мамлакатларида хизматларни экстернализация қилиш жараёнлари фаол олиб борилди. Экстернализация қилиш деганда олдин саноат ишлаб чиқаришнинг ташкилий қисми ёки оила доирасида ўз-ўзига хизмат кўрсатиш ва аҳоли фаоллигининг мустақил турлари бўлиб ҳисобланувчи, ўзига жамоат эҳтиёжларини қондириш функцияларини олувчи, сервис фаолиятининг янги тури ва шаклларининг кенг миқёсда пайдо бўлиши тушунилади. Бу жараёнлар хизмат кўрсатиш фаолиятини янада ривожлантирди, ҳамда хизмат кўрсатиш сифатини янада яхшиланишига сабаб бўлди.

Иқтисодиёти ривожланган давлатларнинг ЯИМда хизматлар улушининг ўсиши XX асрнинг сўнгги чорагида ҳамда XXI асрнинг биринчи чорагида хизмат кўрсатиш соҳаси жадал суръатлар билан ўсиб бориши кузатилди. Бугунги кунда кўпгина мамлакатларда ЯИМнинг асосий қисмини хизмат кўрсатиш соҳаси таъминлайди. Европа иттифоқи мамлакатларида ЯИМда хизматлар улуши 63 % ни, АҚШда 73% ни ташкил этади.

Замонавий иқтисодиётда хизмат кўрсатиш соҳаси ролининг ўзгариши ҳақида шунингдек ички савдо натижалари кўрсаткичлари, хизматлар билан ташқи савдо ҳажми, бандлик структурасининг ўсиш томон ўзгариши ва бошқалар гувоҳлик беради.

Хизмат кўрсатиш соҳасидаги бандлар сони ҳақида гапирадиган бўлсак, унга нафақат хизматлар кўрсатиш соҳасида банд бўлган ходимлар, балки иқтисоднинг бошқа соҳаларида сервис функцияларини бажарувчилар ҳам киради. Шундай қилиб, ҳам ашё тайёрлови, қишлоқ хўжалиги, қайта ишлаш саноатига қрашли корхоналарида юрист, ташиш бўйича



мутахассислар, кадрлар танлаш ва меҳнат ресурслари бўйича жавобгар ходимлар каби сервис профилининг мутахассислари мавжуд. Буларнинг барчаси “ички” хизматлар таркибида бўлади.

Инновацион иқтисодий шакллантириш шароитида хизмат кўрсатиш соҳаси ривожланишининг яна бир муҳим аҳамияти туризмнинг ички структурасининг динамик ва масштабли ўзгариши билан боғлиқ. Сўнгги 30 йил ичида асосий ишлаб чиқариш тармоқларини динамикасига асос бўлган ишлаб чиқариш хизматлари билан боғлиқ сегментлар ўсиши айниқса эса қоларли бўлди. Ишлаб чиқариш хизматлари орасида ҳозирги кунда мустақил сервис сегментини ташкил қилувчи ишбилармонлик хизматлари бунёд бўлди.

Инновацион иқтисодий шакллантириш шароитида ривожланишнинг мантикий ишлаб чиқариш чегарасидан ташқарига саноат корхоналарининг ички бўлимларига хизмат кўрсатувчиларни чиқариш заруриятини келтириб чиқарди. Бу бўлимлар ҳуқуқий шахслар мақомига эга бўлди ва ўзининг фаолиятини саноат хусусан сервис фаолияти доирасида ишлаб чиқаришга белгиланган турли хизматларга қаратганлар рақобатда ютиб чиқмоқда.

Ишлаб чиқариш хизматлари бир тармоқли корхоналарда маҳсулотга бозор талаби, таъминлаш билоан, ишлаб чиқарувчи, унинг ҳамкорлари ва истеъмолчилар ўртасида воситачилик ролининг бажарилиши билан боғлиқ. Охирги ҳолатда инфорацион, телекоммуникацион, транспорт, компьютер хизматлари бажарилмоқда, тадбиркорлик муҳити янгилашиб бормоқда ва ҳ.к. Шундай қилиб, ишлаб чиқариш хизматлари нима, қаерда ва қандай ишлаб чиқарилиши кераклигини янада юқори даражада аниқловчи мустақил ривожланувчи тармоқ бўлиб бормоқда.

Айниқса саноат маҳсулотларини сотиш бўйича хизмат кўрсатиш билан ва етказиб бериш билан боғлиқ ишлаб чиқариш хизматларини алоҳида айтиш лозим. Ҳар бир ишлаб чиқариш айниқса, юқори технологияли, техника ва узоқ муддатга фойдаланиладиган товарлар ишлаб чиқақувчи сервиснинг алоҳида турига муҳтождир. Бу сервис тайёр техникани монтаж қилиш ва жойлаштиришга, тайёр маҳсулотларни жамловчи, ҳам ашёни ташиш ва омборларга тахлашга шунингдек унга ёқилғи қуйиш, техник хизмат кўрсатиш, ремонт, ташқи кўринишини сақлаш кейинчалик уни фойдаланишга беришга йўналтирилган.

Хизмат кўрсатиш фаолиятининг ушбу кўринишлари асосий ишлаб чиқариш билан тўғривоғи унинг натижаси – товар билан уни истеъмолчига чиқиши олдидан ва ундан кейинги ҳолати билан боғлиқ. Ишлаб чиқарувчилар тез-тез бу хизматларни яхшиламасдан ортиқча юк сифатида қарашади. Лекин амалиёт шуни кўрсатадики, яъни сервиснинг бу турлари биринчидан ҳам ишлаб чиқарувчилар учун ҳам истеъмолчилар учун ўта муҳим, иккинчидан, юқори даромадли ҳисобланади. Бугунги кунда завод техник қурилмалари, локомативлар, самолётлар, ҳарбий техникалар, компьютерлар ва бошқалар сотиш хизматларининг объекти бўлиб ҳисобланмоқда.

Ишлаб чиқариш сервисини билан бир қаторда у билан яқин тўқнаш келувчи (лекин кўшилмайдиган) савдо, овқатланиш, транспорт, алоқа билан боғлиқ тақсимот, туризм, меҳмонхона, таълим, тиббий, суғурта ва банк хизматлари фаол ривожланмоқда. XX асрнинг охири ва XXI аср бошларида алоқа ва транспорт хизматларининг тезкор ривожланиши асосий ишлаб чиқаришга нисбатан ҳар хил мижозларнинг сифатга бўлган талабларининг тезда ўсиши, алоқа хизматлари ва транспорт хизмат кўрсатиш дифференциал ва ихтисослаштириш билан шартланган. Айниқса коммуникациянинг янги турлари – телефон алоқанинг янги усуллари, компьютер тармоқлари ва бошқалар билан боғлиқ алоқа хизматлари сегментлари сезиларли ўзгаришларни бошдан кечиряпти. Коммуникацион хизматларнинг янги босқичи



(спутник орқали алоқа, компьютер алоқасини ўзлаштириш) транспорт хизматларини қисман бўлсада ўрнини эгаллашга етакламоқда.

Ривожланиш динамикаси ва юқори талаб бугунги кунда тадбиркорлик амалиётининг ҳамда хизмат кўрсатиш фаолиятининг барча тармоқларига кириб борувчи тадбиркорлик хизматлари учун ҳам характерлидир. Тадбиркорлик хизмат кўрсатиш ўзининг шакллари бўйича кўпқиррали кўринишга эга, шунингдек иқтисод ва жамоат фаолиятининг турли соҳаларида кўп тармоқли. Унинг ўзагини банк ва суғурта хизматлари ва воситачи тадбиркор фаолияти, транспорт-эксплуатацион, ташкилий-ахборот, консултация ва бошқа хизматлар ташкил этади.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, модель трансформации, электронное правительство, интероперабельность, цифровая инфраструктура, кибербезопасность, экспорт IT-услуг, Узбекистан.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi alohida tarmoqni kengaytirish vazifasidan chiqib, butun iqtisodiy tizimni qayta tashkil etish darajasiga ko'tarildi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi ushbu yo'nalishning institutsional asosini yaratdi; mazkur yondashuv doirasida raqamli iqtisodiyot hajmini kamida 2,5 barobar oshirish, dasturiy outsorsing hajmini keskin kengaytirish, davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish va davlat boshqaruvi jarayonlarini 90 foizgacha raqamli formatga o'tkazish kabi maqsadlar belgilangan. Demak, raqamli transformatsiya O'zbekiston uchun faqat texnologik yangilanish emas, balki iqtisodiy o'sish, davlat boshqaruvi samaradorligi va xalqaro raqobatbardoshlikning yangi modeli sifatida qaralishi kerak.

2024-yil yakunlari O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning sezilarli o'sishini ko'rsatdi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat YaIMi 2024-yilda 114,97 mlrd AQSh dollariga yetib, iqtisodiy o'sish sur'ati 6,5 foizni tashkil etdi. Shu fonda Milliy statistika qo'mitasi axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat 60 219,5 mlrd so'mga yetganini, bu ko'rsatkichning YaIMdagi ulushi esa 4,08 foizni tashkil etganini qayd etadi. Elektron tijoratning o'zi bo'yicha yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat 20 328,1 mlrd so'mga yetgani raqamli bozor institutlari endi iqtisodiy strukturaning chekka emas, balki shakllanayotgan markaziy bo'g'iniga aylanayotganini anglatadi.



Aholining raqamli ulanish darajasi ham ijobiy dinamikani namoyon etdi. 2024-yil boshida O‘zbekistonda 29,52 mln internet foydalanuvchisi mavjud bo‘lib, internet qamrovi 83,3 foizni tashkil etdi; mobil aloqa ulanishlari soni esa 33,81 mln taga yetgan. Shu bilan birga, aholi tarkibining qariyb yarmi qishloq hududlarida yashashi, raqamli infratuzilma sifati va xizmatlar iste‘moli hududlar bo‘yicha bir xil emasligini ko‘rsatadi. BMT elektron hukumat rivojlanish indeksida O‘zbekistonning 0,7999 ball bilan 63-o‘ringa chiqishi muhim natija bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich endi keyingi bosqich — xizmatlar sonidan ko‘ra ularning integratsiyasi, sifati va proaktivligiga o‘tishni talab qiladi. ITUning ICT Development Index 2024 reytingida O‘zbekistonning 84,9 ball qayd etgani ham mamlakatda aloqa va raqamli kirish imkoniyatlari mustahkamlanayotganini tasdiqlaydi.

Raqamli iqtisodiyotning muhim amaliy segmentlaridan biri bo‘lgan to‘lovlar va fintech sohasida ham jadal o‘shish kuzatildi. Markaziy bankning 2024-yil bo‘yicha yillik hisobotiga ko‘ra, to‘lov tashkilotlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan 1,8 barobar oshib, 333 trln so‘mga yetgan. 2025-yil

1-yanvar holatiga elektron hamyonlar soni 15,6 mln tadan 20,6 mln taga ko‘paygan. Bu ko‘rsatkichlar raqamli moliyaviy ekotizim shakllanayotganini ko‘rsatsa-da, ularning ishlab chiqarish, logistika, kichik biznes hisoboti va hududiy xizmatlar bilan to‘liq integratsiyasi hali yetarli darajada emas.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiyaning ijobiy natijalari mavjud muammolarni inkor etmaydi. UNDP tadqiqotida O‘zbekistonda qishloq hududlarida raqamli savodxonlikning cheklanganligi, AKT bo‘yicha tartibga solish muhitining yetarlicha shakllanmaganligi va xususiy sektor ishtirokining pastligi asosiy to‘siqlar sifatida ko‘rsatiladi. Bu holat shuni anglatadiki, muammo endi faqat internet tarmog‘ini kengaytirishda emas, balki undan unumli iqtisodiy foydalanish ko‘nikmasi, ma‘lumotlar aylanishi va xususiy innovatsion tashabbuslarni ko‘paytirishda namoyon bo‘lmoqda.

Birinchi tizimli muammo — hududlararo va tarmoqlararo raqamli nomutanosiblikdir. IT Park ekotizimi 2024-yilning uchinchi choragi yakuniga ko‘ra 2 384 ta a‘zoga, 936 ta eksport qiluvchi ITEs kompaniyasiga, 36,3 ming nafar ish o‘rniga va 78 mamlakatni qamrab olgan eksport geografiyasiga erishdi. Bu juda ijobiy natija. Biroq o‘shishning katta qismi nisbatan tor IT-ekotizimda jamlanib qolsa, sanoat, qishloq xo‘jaligi, logistika, sog‘liqni saqlash va mahalliy xizmatlar sektoriga raqamli texnologiyalarning chuqur singishi sekinlashadi. Natijada raqamli iqtisodiyotning “orolcha modeli” shakllanib, u butun milliy iqtisodiyotni tortuvchi drayverga aylanishi qiyinlashadi.

Ikkinchi muammo — ma‘lumotlar boshqaruvi va interoperabellikning yetarli emasligidir. Davlat tizimlarida ko‘plab axborot resurslari yaratilayotgan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro mosligi, yagona standartlar asosida ishlashi va biznes uchun ochiq API ekotizimga aylanishi sust kechmoqda. Bu esa fuqarodan bir xil ma‘lumotni takroran talab qilish, qaror qabul qilishda real vaqt ma‘lumotlaridan yetarli foydalanmaslik va xizmatlarni proaktiv formatga o‘tkazishda qiyinchilik tug‘diradi. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, raqamli hukumatning haqiqiy samarasi platformalar ko‘pligida emas, balki registrlar va xizmatlar o‘rtasidagi uzluksiz ma‘lumot almashinuvida yuzaga chiqadi.

Uchinchi muammo — inson kapitali sifati va mehnat bozorining transformatsiyaga moslashish tezligidir. O‘zbekistonning IT xizmatlari eksporti 2024-yil yakuniga ko‘ra 900 mln AQSh dollariga yetgani, Q3 yakunida 17 ming nafar mutaxassis eksportga yo‘naltirilgan kompaniyalarda ishlayotgani soha salohiyatini tasdiqlaydi. Ammo raqamli iqtisodiyot uchun kerakli kadrlar faqat dasturchilar bilan cheklanmaydi; data-tahlilchi, kibermuhandis, platforma menejeri, product owner, regtech va govtech mutaxassislari kabi o‘rta va yuqori malakali kasblar bo‘yicha taklif hali yetarli



emas. Shu bois kadrlar siyosati “IT ta’lim”dan “raqamli iqtisodiyot uchun kompetensiyalar” modeliga o’tishi lozim.

To’rtinchi muammo — kiberxavfsizlik va raqamli ishonch infratuzilmasidir. ITU materiallariga ko’ra, O’zbekiston 2024-yilgi Global Cybersecurity Index’da ikkinchi, ya’ni “advanced” guruhga kirgan. Bu sezilarli yutuq, ammo aynan raqamli iqtisodiyot kengaygan sari hujum sathlari, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, davlat va biznes ma’lumotlar bazalarining xavfsiz integratsiyasi, bulutli xizmatlar xavfsizligi va AI bilan bog’liq xavflar ham keskin ortadi. Demak, raqamli transformatsiya kiberbarqarorlikdan ajralgan holda emas, balki “trust by design” tamoyili asosida olib borilishi kerak.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun O’zbekiston sharoitiga mos ko’p qatlamli raqamli transformatsiya modelini taklif etish mumkin. Birinchi qatlam — raqamli infratuzilma va raqamli ommaviy infratuzilma bo’lib, u keng polosali internet, mobil aloqa, ma’lumotlar markazlari, bulutli yechimlar, raqamli identifikatsiya va ma’lumot almashinuvi platformalarini qamrab oladi. Ikkinchi qatlam — raqamli davlat bo’lib, bunda registrlar, idoralararo interoperabellik, proaktiv davlat xizmatlari, ochiq ma’lumotlar va GovTech yechimlari markaziy o’rinni egallaydi. Uchinchi qatlam — raqamli biznes bo’lib, u e-tijorat, fintech, sanoat 4.0, aqlli logistika, agrotech va eksportga yo’naltirilgan IT xizmatlarini birlashtiradi. To’rtinchi qatlam — raqamli inson kapitali, ya’ni aholining bazaviy raqamli savodxonligidan tortib ilg’or texnologik kompetensiyalargacha bo’lgan tizimdir. Beshinchi qatlam esa raqamli ishonch bo’lib, kiberxavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish, huquqiy aniqlik va algoritmik javobgarlikni o’z ichiga oladi. Ushbu modelning asosiy afzalligi shundaki, u raqamlashtirishni alohida loyihalar yig’indisi sifatida emas, balki yagona iqtisodiy arxitektura sifatida ko’radi.

Taklif etilayotgan modelni shakllantirish mexanizmi ham bosqichma-bosqich qurilishi kerak. Avvalo, davlat registrlari va axborot tizimlari uchun yagona arxitektura va majburiy interoperabellik standarti joriy etilishi lozim. Keyin, davlat xizmatlari “ariza qabul qilish” mantig’idan “oldindan bilish va taklif etish” mantig’iga o’tkazilishi kerak. Uchinchi bosqichda xususiy sektor uchun ochiq API, tartibga soluvchi sandbox, raqamli davlat xaridlari va platformaviy hamkorlik mexanizmlari kengaytirilishi zarur. To’rtinchi bosqichda hududiy raqamli inklyuziya uchun qishloq hududlarida ulanish sifati, raqamli ko’nikmalar va mikro bizneslarni raqamlashtirish bo’yicha manzilli dasturlar kuchaytirilishi kerak. Beshinchi bosqichda esa baholash tizimi o’zgartirilib, xizmatlar soni emas, balki vaqt tejalishi, tranzaksiya xarajatlari qisqarishi, biznes unumdorligi va rasmiylashgan iqtisodiy faollikning oshishi asosiy KPI sifatida qabul qilinishi lozim.

Xalqaro tajriba aynan shu yo’nalishlarning to’g’riligini tasdiqlaydi. Estoniya tajribasida X-Road xavfsiz ma’lumot almashinuvi qatlamining mavjudligi turli tizimlarni bir-biriga ulab, “once-only” tamoyili asosida fuqarodan ma’lumotni faqat bir marta olish imkonini berdi; ushbu tizim yiliga 2,2 mlrd tranzaksiyani qayta ishlaydi va 1 345 yildan ortiq ish vaqtini tejaydi. Janubiy Koreyada Government24 platformasi 12 mingga yaqin xizmat bo’yicha yo’riqnoma beradi va taxminan 1 300 xizmatni idoralararo hamkorlik asosida ariza topshirish, kuzatish va rasmiylashtirish imkonini yaratadi; mamlakatning raqamli hukumat innovatsiyasi esa shaxsiylashtirilgan xizmat va davlat miqyosida ma’lumotlardan foydalanishga tayangan. Singapurda esa Singpass, elektron to’lovlar va 2024-yilda yangilangan Smart Nation 2.0 konsepsiyasi “Trust, Growth, Community” uchligiga asoslanib, raqamli davlatni nafaqat texnologiya, balki ijtimoiy ishonch va iqtisodiy imkoniyatlar bilan bog’laydi. O’zbekiston uchun bu tajribalardan olinadigan bosh saboq shuki, raqamli transformatsiya texnik platformani emas, ishonchli institutlar va integratsiyalashgan ma’lumotlar iqtisodiyotini qurishni talab qiladi.



Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot endi dastlabki shakllanish bosqichidan tizimli transformatsiya bosqichiga o‘tmoqda. 2024-yil statistikasi mamlakatda raqamli ulanish, e-tijorat, IT eksporti, elektron hukumat va raqamli to‘lovlar bo‘yicha sezilarli siljish borligini ko‘rsatadi. Biroq mazkur o‘shishni barqaror va inklyuziv iqtisodiy natijaga aylantirish uchun raqamli siyosatning markaziga uch ustuvor vazifa qo‘yilishi zarur: birinchisi, ma’lumotlar va xizmatlarning interoperabelligi; ikkinchisi, hududiy va ijtimoiy raqamli inklyuziya; uchinchisi, raqamli ishonch va xususiy innovatsion ekotizimni kuchaytirish. Ana shunda raqamlashtirish davlat xizmatlarining elektron shakliga o‘tishi bilangina cheklanmay, ishlab chiqarish samaradorligini, mehnat unumdorligini, eksport diversifikatsiyasini va aholi farovonligini oshiruvchi real iqtisodiy drayverga aylanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, “Digital economy” rasmiy statistik ko‘rsatkichlari.
3. World Bank, Uzbekistan country data.
4. DataReportal, “Digital 2024: Uzbekistan”.
5. UN E-Government Knowledgebase, Uzbekistan country profile.
6. ITU, “ICT Development Index 2024”.
7. Central Bank of Uzbekistan, Annual Report 2024.
8. UNDP, “Digital Economy of Uzbekistan”.
9. Gov.uz, raqamli texnologiyalar bo‘yicha 2024-yil yakunlari va rejalari haqidagi materiallar.
10. IT Park Uzbekistan, 2024-yil Q3 natijalari va xalqaro eksport ko‘rsatkichlari.
11. e-Estonia, X-Road va “once-only” tamoyili bo‘yicha materiallar.
12. Ministry of the Interior and Safety of Korea, Government24 va Digital Government Innovation.
13. Smart Nation Singapore va SG Digital Gateway materiallari.



**ФИРИБГАРЛИКНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШДА АНТИФРОД УСУЛЛАРИДАН  
ФЙДАЛАНИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ**

**Пардаев Мамаюнус Қаршибаевич**

**Мамаюнусов Бекзот Орифович**

**АННАТАЦИЯ**

Мақолада турли соҳаларда фирибгарликнинг олдини олишда қўлланиладиган антифрод усулларидан фойдаланишнинг афзалликлари ёритилган. Бунда антифрод қаерларда қўлланилиши, унинг асосий вазифалари, иқтисодий, ҳуқуқий, рақамли технологиялардан фойдаланишдаги ҳолатлари ҳам қараб чиқилган. Тадқиқот натижасида тегишли хулоса қилиниб, айрим тавсиялар ҳам берилган.

**Калит сўзлар.** Антифрод, фирибгарлик, техник тизимлар, назорат механизмлари, ҳуқуқий-ташқилий чоралар, алдамчилик, молия тизими, банклар, рақамли алдамчилик.

**ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АНТИФРОД-МЕТОДОВ В**

**ПРЕДОТВРАЩЕНИИ МОШЕННИЧЕСТВА**

**Пардаев Мамаюнус Қаршибаевич**

**Мамаюнусов Бекзот Орифович**

**АННОТАЦИЯ**

В статье освещаются преимущества использования антифрод-методов, применяемых для предотвращения мошенничества в различных сферах. При этом рассматриваются области применения антифрода, его основные функции, а также особенности использования экономических, правовых и цифровых технологий. По результатам исследования сделаны соответствующие выводы и предложен ряд рекомендаций.

**Ключевые слова:** Антифрод, мошенничество, технические системы, механизмы контроля, правовые и организационные меры, обман, финансовая система, банки, цифровое мошенничество.

**ADVANTAGES OF USING ANTIFRAUD METHODS IN PREVENTING FRAUD**

**Pardayev Mamayunus Qarshibayevich**

**Mamayunusov Bekzot Orifovich**

**ABSTRACT**

This article highlights the advantages of using anti-fraud methods applied to prevent fraud in various sectors. It examines the areas where anti-fraud systems are used, their main functions, as well as the application of economic, legal, and digital technologies. Based on the results of the study, relevant conclusions are drawn and several recommendations are provided.

**Keywords:** Anti-fraud, fraud, technical systems, control mechanisms, legal and organizational measures, deception, financial system, banks, digital fraud.

**КИРИШ**

Антифрод мавзусига бағишланган масалалар бугунги кунда ўта долзарблиги билан ажралиб туради. Чунки, ҳозирги шароитда рақамлашув жараёнининг жадаллашуви унинг банк хизматларига, электрон тўловларга жорий қилиниши, онлайн савдонинг кўпайиши, электрон давлат хизматларининг ташкил қилиниши кундан-кунга кенг ривожланмоқда. Бу эса фирибгарликнинг янги рақамли шакллариининг пайдо бўлишига олиб келмоқда. Шу сабабли антифрод тизимларига эҳтиёж тобора ортиб бормоқда. Бундай рақамли иқтисодиётнинг ривожланган шароитида антифрод хавфсизлик кафолати сифатида майдонга чиқади. Чунки, жаҳон амалиётида фирибгарликнинг пайдо бўлиши натижасида молиявий йўқотишларнинг ўсиб бориши банклар, компаниялар, давлат бюджети каби соҳалар учун катта молиявий зарар келтирмоқда.



Буларга қарши антифрод тизимлари, яъни зарарни олдини олади, рискларни бошқаришни яхшилайти, иқтисодий барқарорликни таъминлайти. Шу туфайли мазкур масаланинг иқтисодий хавфсизликни таъминлаш заруратиға эътиборни қаратиш лозим. Чунки, фририбгарлик, яширин иқтисодиётни кенгайтиши, инвестиция муҳитиға салбий таъсир қилиши натижасида ишончнинг пасайиши ҳам вужудға келмоқда. Бундай шароитда антифрод миллий иқтисодий хавфсизликнинг муҳим элементи сифатида майдонға чиқди.

Давлат бошқаруви ва корпоратив соҳада коррупция ва манфаатлар тўқнашувига қарши курашда ҳам ушбу усул қўл келмоқда. Чунки бу усул билан коррупцион схемалар, сохта ҳисоботлар, бюджет маблағларини талон-торож қилиш аби кенг тарқалган муаммоларни ҳал қилишда ҳам муҳим омил бўлиб ҳисобланади. Кўриниб турибдики, антифрод усулидан фойдаланиш бугунги кунда ўта долзарб масалалардан бириға айланган.

### **ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ**

Мақолада фририбгарликнинг олдини олишда антифрод усулларида фойдаланишнинг афзалликларини қараб чиқиш жараёнида микдор ва сифат, индукция ва дедукция, макон ва замон, мантикий ва иқтисодий таҳлил ҳамда статистик методлар билан боғлиқ усул ва услублардан фойдаланилган.

### **ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР**

Тадқиқотларимиз кўрсатдики, антифрод усуллари бугунги кун учун зарур амаллардан бири ҳисобланади. Чунки у шаффофликни оширади, жавобгарликни кучайтириш билан бирға назорат механизмларини мустақкамлайти. Кўплаб давлатларда ҳуқуқий ислохотлар ва халқаро талабларушбу усул пул ювиш ва терроризмни молиялаштиришға қарши курашда, комплаенс ва ички назорат тизимлари кучайтиришда ҳам қўлланилмоқда. Чунки, антифрод халқаро стандартларға мосликни ҳам таъминлайти.

Ҳозирги кунда иқтисодий-ижтимоий ҳаётимизға сунъий интеллект ва инноватсион технологияларнинг жорий этилиши рўй бермоқда. Бу масаланинг ижобий жиҳатлари билан бирға салбий ҳолатларға ҳам дуч келмоқдамиз. Чунки турли фририбгарлар ҳам пайдо бўлмоқда. Бундай шароитда антифрод усулининг қўлланилиши фририбгарликни олдиндан аниқлаш имконини беради. Бу эса инсон омилиға боғлиқ хатоларни камайтириш имкониятини ҳам яратади. Антифрод усулининг амалиётға жорий қилиниши мазкур мавзусининг ўта муҳимлигидан далолат беришининг сабабларидан бири унинг рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши, молиявий хавф-хатарларнинг ортиши, иқтисодий ва ҳуқуқий хавфсизликни таъминлаш, коррупцияға қарши самарали кураш қабилар билан бевосита боғлиқдир.

Энди антифрод сўзининг мазмуниға тўхталадиган бўлсак, бу инглизча anti-fraud сўзидан олинган бўлиб, алдамчилик, яъни ҳозирги пайтда томир олаётган фририбгарликнинг олдини олиш, аниқлаш ва унга қарши курашишға қаратилган чора-тадбирлар мажмуасини англатади.

Антифрод мазмуниға қисқача эътибор қаратадиган бўлсак, бу фририбгарликка қарши сиёсатлар, техник тизимлар, назорат механизмлари, ва ҳуқуқий-ташқилий чоралар орқали молиявий, рақамли ёки ташқилий алдамчиликларни бартараф этиш масалалариға қаратилганлиги билан аҳамиятлидир.

Бугунги кунда антифрод банк ва молия соҳасида, карта орқали ноқонуний тўловларни аниқлашда, кредит фририбгарлигини ташхис қўйиш каби халтис ҳаракатларнинг олдини олишда қўлланилади. Худди шундай онлайн тижорат ва рақамли платформаларда, сохта аккаунтларда, қалбаки буюртмаларда, тўловдаги алдамчиликларнинг олдини олишда ҳам қўлланилмоқда. Худди шундай, давлат бошқаруви ва корпоратив соҳада, айниқса коррупция,



бюджет маблағларини ўзлаштириш, манфаатлар тўқнашувида ҳам ушбу усулнинг аралашуви бор.

Антифрод тизимларининг асосий вазифалари хавфли операцияларни ўз вақтда аниқлаш, шубҳали ҳаракатларни таҳлил қилиш орқали молиявий йўқотишларни камайтиришга эришилишини таъминлашга қаратилган. Бу эса ўз навбатида, шаффофлик ва банк хизматлари истеъмолчиларининг ишончни оширишга эришиш имкониятини яратади. Бунга бир оддий мисолни келтирамиз. Агар банк картангиздан сиз қилмаган тўлов амалга оширилса ва банк уни дарҳол тўхтатса, демак бу банкда антифрод тизими ишлаганлигидан далолат беради.

Шуни қайд этиш жоизки, антифроддан фойдаланишнинг турли жиҳатлари ҳам мавжуд. Жумладан, унинг иқтисодий, ҳуқуқий жиҳатлари мавжуд. Бироқ ушбу масалаларга замонавий рақамли технологиялар нуқтаи назаридан қараладиган бўлса масала янада ойдинлашади. Шу туфайли куйида антифродни иқтисодий, ҳуқуқий ва рақамли технологиялар нуқтаи назаридан батафсилроқ тушунтириб беришга ҳаракат қиламиз.

Антифроднинг иқтисодий мазмуни бевосита молиявий йўқотишларни камайтириш ва иқтисодий барқарорликни сақлаш воситаси сифатида намоён бўлишини инобатга олиш лозимлиги билан ифодаланади.

Иқтисодий жиҳатдан антифроднинг асосий мақсадлари энг аввало фирибгарлик сабабли юзага келадиган моддий зарарларни олдини олишга қаратилган бўлади. Бунинг учун банклар, компаниялар ва давлат бюджетига бўлган ишончни мустаҳкамлаш, хавфсиз инвестицион муҳитни яратиш, яширин иқтисодиёт ва ноқонуний даромадларни чеклаш ишлари амалга оширилади. Бунга мисол тариқасида шуни таъкидлаш жоизки антифроднинг қўлланилиши билан давлат харидларида сохта тендерлар тўхтатилиб, уларнинг саҳталигини ошқор қилса, энг аввало бюджет маблағлари тежалади, субъектлар ўртасида рақобат кучаяди, иқтисод самарадорлиги юксалади. Шу йўл билан қуфёна иқтисодиётга ҳам барҳам берилади.

Энди антифродга ҳуқуқий нуқтаи назардан қарайдиган бўлсак, бунда қонунбузарликларни аниқлаш ва жавобгарликни таъминлаш механизми шу йўл билан амалга оширилганлигини кўриш мумкин. Чунки бунга барча ҳуқуқий асослар мавжуд ва амалда. Жумладан, фирибгарликка қарши қонунлар ва меъёрий ҳужжатлар амалда бўлганлиги учун булар учун жиноий, маъмурий ва молиявий жавобгарлик чораларини кўриш кўзда тутилган ва бу ҳаракатда. Буни амалга оширишда назорат ва текширув органлари фаолияти ҳам йўлга қўйилган.

Ҳуқуқий соҳада антифрод юқоридагилар билан бирга коррупцияга қарши кураш, пул ювишнинг олдини олиш, мансаб ваколатини суиистеъмол қилиш каби иллатларни чеклаш имкониятини ҳам яратади. Мисол учун бирорга шахс ёки ташкилот сохта ҳужжатлар билан кредит олса, ушбу ҳолат жиноий фирибгарлик ҳисобланади ва антифрод тизими орқали аниқланиб, қонунан жавобгарликка тортилади. Демак ушбу усул банклар фаолиятида қонунбузарликларнинг ҳам олдини олишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Антифроднинг янги йўналиши бўлган рақамли технологиялар асосидаги мазмунига эътиборни қаратадиган бўлсак, рақамли антифрод сунъий интеллект орқали, алгоритм ва маълумотлар таҳлилига таянган автоматлаштирилган ҳимоя тизимини яратади. Бунда бир қанча технологиялар қўлланилади. Буларга Big Data, яъни катта ҳажмдаги маълумотларни таҳлил қилиш учун қўлланилса, Сунъий интеллект (AI) шубҳали ҳаракатларни ўрганиш ва башорат қилишда фойдаланилади. Machine Learning ҳам фирибгарлик намунасини автоматик аниқлашда ишлатилади. Real-time monitoring эса операцияларни дарҳол назорат қилиш имкониятларини таъминлайди. Бордию одатдагидан фарқли жойда тўлов қилинса, жуда қисқа



вақтда кўп оператсия амалга оширилса, тизим оператсияни тўхтатади ёки кўшимча тасдиқ сўрайди. Бу эса мазкур соҳада хуфёна иқтисодиётнинг олдини олиш имкониятини яратади.

Хулоса қилиб айтганда, антифрод иқтисодий хавфсизликни таъминлаш билан бирга, хукукий адолатни ҳам йўлга қўяди. Шу тарика рақамли ишончни таъминловчи комплекс тизим шаклланади. Ўзбекистон шароитида антифрод амалиёти, энди жорий қилиниб бошланди. Бу бўйича дастлабки қадамлар банк тизимларига қўйилган. Бу ушбу соҳада антифрод ва коррупцияга қарши курашиш учун ҳам бевосита иш кўради. Демак ушбу соҳада антифроднинг қўлланилиши, “Ўзбекистон - 2030” стратегиясида кўзда тутилган куфёна иқтисодиётни бартараф қилиш бўйича белгиланган вазифаларнинг бажарилишига хизмат қилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2003.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2019.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисидаги фармони. – Тошкент, 2020.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг коррупцияга қарши курашиш чоратadbирлари тўғрисидаги қарорлари. – Тошкент, 2020–2023.
5. Абдуллаев Ё., Рахимов Б. Иқтисодий хавфсизлик асослари. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2018.



## **BARQAROR RIVOJLANISHDA DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINING O'RNI**

**Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi**

**Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li**

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada barqaror rivojlanishni ta'minlashda davlat investitsiya siyosatining o'rni O'zbekiston tajribasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya dasturlari, xususan, infratuzilmani rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya qilish, yashil energetika va ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy o'sish hamda ijtimoiy barqarorlikka ta'siri yoritilgan. Shuningdek, investitsiya siyosatini takomillashtirish orqali hududlar rivojini muvozanatlashtirish, bandlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda barqaror rivojlanishga erishishda davlat investitsiya siyosati muhim strategik vosita ekanini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** yashil investitsiyalar, davlat tartibga solishi, barqaror iqtisodiy o'sish, ekologik moliyalashtirish, qayta tiklanadigan energiya, soliq rag'batlari, subsidiyalash mexanizmlari, ekologik modernizatsiya, investitsion siyosat.

## **РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ**

**Абдурахманова Акида Файзулла кызы**

**Шарипбоев Хусанбой Маркс угли**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье на основе опыта Узбекистана анализируется роль государственной инвестиционной политики в обеспечении устойчивого развития. В исследовании рассматриваются реализуемые государством инвестиционные программы, в частности инвестиции, направленные на развитие инфраструктуры, модернизацию промышленности, «зелёную» энергетику и социальные сферы, а также их влияние на экономический рост и социальную устойчивость. Кроме того, изучаются вопросы совершенствования инвестиционной политики с целью сбалансированного развития регионов, повышения занятости и эффективного использования ресурсов. Результаты исследования показывают, что государственная инвестиционная политика является важным стратегическим инструментом достижения устойчивого развития в Узбекистане.

**Ключевые слова:** зелёные инвестиции, государственное регулирование, устойчивый экономический рост, экологическое финансирование, возобновляемая энергия, налоговые стимулы, механизмы субсидирования, экологическая модернизация, инвестиционная политика.

## **THE ROLE OF STATE INVESTMENT POLICY IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT**

**Abdurakhmanova Aqida Fayzulla qizi**

**Sharipboyev Husanboy Marks ogli**

### **ABSTRACT**

This article analyzes the role of state investment policy in ensuring sustainable development based on the experience of Uzbekistan. The study examines government-implemented investment programs, particularly investments directed toward infrastructure development, industrial modernization, green energy, and social sectors, and evaluates their impact on economic growth and social stability. In addition, the paper considers issues of improving investment policy to balance regional development, increase employment, and ensure efficient use of resources. The research findings demonstrate that state investment policy is an important strategic instrument for achieving sustainable development in Uzbekistan.



**Keywords:** green investments, state regulation, sustainable economic growth, environmental financing, renewable energy, tax incentives, subsidy mechanisms, environmental modernization, investment policy.

### KIRISH

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Global miqyosda iqtisodiy o'sish bilan ekologik xavfsizlik masalalari bir-biriga bog'liq bo'lib, tabiiy resurslar cheklanganligi, iqlim o'zgarishi va atrof-muhit ifloslanishi iqtisodiy faoliyatni yangi sharoitlarda qayta tartibga solishni zarur qiladi. Shu munosabat bilan yashil iqtisodiyot konsepsiyasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, bunda iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik uyg'unlashadi. Buning uchun barqaror rivojlanish asoslari ko'plab davlatlarda qo'llanilmoqda.

Barqaror rivojlanish resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalarga asoslangan ishlab chiqarishga o'tish va kelajak avlod ehtiyojlari uchun kerakli resurslar qoldirishni anglatuvchi birikmadir. Barqaror iqtisodiyot jamiyat (qonunlar va qoidalar), iste'molchilar va korxonalar tomonidan qabul qilingan iqtisodiy qarorlarga asoslanadi. Iqtisodiy barqarorlik resurslarni yo'qotish yoki qarzdorlikka asoslanmagan muvozanatli o'sishni anglatadi. Iqtisodiy barqarorlikka samarali qayta ishlash va qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish orqali erishish mumkin. Uzoq muddatli istiqbolda butun dunyo va barcha avlodlar uchun atrof-muhitning tashish qobiliyatini hisobga olish muhimdir. Ushbu bo'lim barqaror rivojlanishni har bir iqtisodiy qaror qabul qiluvchi nuqtai nazardan ko'rib chiqadi. Barqaror rivojlanishning 5 ta asosiy tamoyillari mavjud, jumladan, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, ekologik barqarorlik, davlatning barqaror rivojlanishdagi roli hamda barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari bo'lib, ular jamiyatning uzoq muddatli va muvozanatli taraqqiyotini ta'minlashda o'zaro uyg'un holda amal qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi: Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va yashil investitsiyalar orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Jahon bo'yicha barqaror rivojlanish sohasida juda ko'plab kitoblar va ilmiy ishlar yozilgan. Jumladan, Niko Roorda tomonidan yozilgan "Fundamentals of Sustainable Development" ya'ni "Barqaror rivojlanish asoslari" nomli kitob eng asosiy ilmiy asoslangan ish hisoblanadi. Muallif barqaror rivojlanishni uch asosiy kapital- iqtisodiy kapital (ishlab chiqarish quvvatlari va moliyaviy resurslar), ijtimoiy kapital (inson kapitali, institutlar va tenglik), hamda tabiiy kapital (yer, suv, energiya, ekologik tizimlar) o'zaro muvozanatda rivojlanishi sifatida izohlaydi. Agar ushbu capital turlaridan biri izdan chiqsa, iqtisodiy tizimning uzoq muddatli samaradorligi pasayadi. Kitobda iqtisodiy qarorlar qisqa muddatli foyda emas, balki uzoq muddatli qiymat yaratish nuqtayi nazaridan baholanishi kerakligi ta'kidlanadi. Masalan, ekologik xarajatlarni e'tiborsiz qoldirish dastlab iqtisodiy foyda keltirgandek ko'rinsa-da, kelajakda ishlab chiqarish tannarxining oshishiga va iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Shuningdek, Niko Roroda barqaror rivojlanishda davlat siyosati va institutlarning roli muhim ekanini ko'rsatadi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solish, investitsiyalarni yashil texnologiyalarga yo'naltirish va bozor mexanizmlarini ekologik va ijtimoiy mezonlar bilan uyg'unlashtirish orqali barqaror iqtisodiy muhit yaratadi. Umuman olganda, kitobda barqaror rivojlanish an'anaviy iqtisodiy o'sish modelidan farqli ravishda, yalpi ichki mahsulot (YaIM) bilan bir qatorda barqarorlik ko'rsatkichlari, resurs unumdorligi va ijtimoiy farovonlikni asosiy mezon sifatida qaraydi. O'zbekistondagi tadqiqotlar ko'proq iqtisodiyotni tartibga solish instrumentlari, moliyaviy rag'batlantirish vositalari va investitsion siyosatni o'rganishga qaratilgan. Abulkasimov H. va Topildiyev S. (2022) iqtisodiyotni tartibga solishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini batafsil tahlil qilgan. Mualliflar davlatning soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kredit preferensiyalari orqali iqtisodiy faoliyatni tartibga solish imkoniyatlarini ko'rsatib, milliy iqtisodiyot sharoitida ushbu

mexanizmlarning samaradorligini baholashga alohida e'tibor qaratadi. Topildiyev S. (2025) o'quv qo'llanmasida esa davlat siyosati orqali investitsion faollikni rag'batlantirish, bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish va barqaror rivojlanishga erishish masalalari amaliy misollar bilan yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur maqolada barqaror rivojlanishni ta'minlashda davlat investitsiya siyosatining o'rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida nazariy va amaliy tahlilga asoslangan kompleks metodologiya qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, investitsion siyosat va barqaror rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy jihatdan o'rganildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida davlat investitsiya siyosati iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik omillari bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilindi. Bu yondashuv investitsiya oqimlarining yo'nalishi, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar: O'zbekiston Respublikasi Hukumati aholining farovonligini yanada oshirish va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida keng ko'lamli ijtimoiy islohotlarni izchil davom ettirmoqda. O'zbekiston 2017-yildan boshlab o'z taraqqiyotida yangi bosqichga qadam qo'ydi. 2017-2021- yillarga mo'ljallangan milliy taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilib, bu yo'lida hukumat va jamiyatning barcha imkoniyat va resurslari safarbar etildi. Ushbu jarayonning muhim qismi sifatida. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil dekabr oyida Oliy Majlis palatalariga qilgan murojaatida davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerakligi, aksincha bo'lmasligi lozimligini qat'iy ta'kidladi. Mazkur tamoyilni hayotga tatbiq etish maqsadida aholining murojaatlari bilan ochiq muloqot olib borish va ularning muammolarini samarali hal etishga qaratilgan yangi tizim joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi ushbu tizimning asosini tashkil etib, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiquvchi noyob demokratik institut sifatida faoliyat yuritmoqda.

**1-jadval****Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi va o'sish sur'ati<sup>21</sup>**

<b>Hudud</b>	<b>Hajmi, mlrd so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Shu jumladan, aholi jon boshiga hajmi, ming so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
O'zbekiston Respublikasi	120 409,8	107,9	3 200,6	105,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 560,1	124,6	2 735,7	122,9
<b>Viloyatlar:</b>				
Andijon	7 284,9	119,0	2 100,9	116,8
Buxoro	8 819,1	81,6	4 240,2	80,3
Jizzax	5 136,2	106,5	3 333,3	104,4
Qashqadaryo	8 164,1	87,2	2 238,1	85,3
Navoiy	8 073,3	79,7	7 359,4	78,3
Namangan	12 406,4	128,2	3 953,2	125,5
Samarqand	10 437,2	133,7	2 423,7	131,0
Surxondaryo	6 083,1	101,7	2 060,2	99,4
Sirdaryo	5 041,8	179,0	5 405,6	175,7
Toshkent viloyati	16 112,9	113,7	5 172,7	111,6
Farg'ona	6 426,3	134,7	1 547,2	132,0



Xorazm	3 935,7	135,7	1 933,1	133,3
Toshkent shahri	16 874,3	96,1	5 407,4	93,9

Ushbu o'zgarishlarning bosh maqsadi-xalq manfaatlarini ta'minlashdir. Mamlakat ehtiyojlaridan kelib chiqib, samarali iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha dastlabki choralar ko'rildi. Qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilinib, bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda. Milliy iqtisodiyotni yanada liberallashtirish, huquqiy bazani takomillashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga qaratilgan puxta ishlab chiqilgan dasturlar amalga oshirilmoqda.

Qisqa vaqt ichida O'zbekistonda 161 ta yirik sanoat obyekti ishga tushirildi. 2017-yilda ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida iqtisodiy o'sish sur'ati 5,5 foizni, eksport hajmining o'sishi esa 15 foizni tashkil etdi.

**2-jadval**

**Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan %, da)**

Hudud	Ja mi	Respubli ka byudjeti	Korxon va tashkilotlar	Aho li	Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	Bank kreditlari	Byudjet-dan tashqari jamg'armalar	Tadbirkorlik subyektlari
O'zbekiston Respublikasi	100	2,4	17,0	7,0	71,0	0,1	0,2	2,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100	2,3	10,1	6,9	73,3	0,2	–	7,2
<b>Viloyatlar:</b>								
Andijon	100	2,2	11,9	5,1	78,9	–	0,5	1,4
Buxoro	100	1,4	9,8	9,1	78,2	0,1	–	1,4
Jizzax	100	3,3	17,1	7,2	70,7	–	–	1,7
Qashqadaryo	100	2,5	12,4	9,8	73,0	0,2	1,2	0,9
Navoiy	100	0,9	16,1	6,8	74,5	–	–	1,7
Namangan	100	2,4	9,0	5,1	82,7	–	–	0,8
Samarqand	100	2,4	20,0	5,2	69,4	0,4	–	2,6
Surxondaryo	100	2,6	6,0	9,8	80,3	–	–	1,3
Sirdaryo	100	2,6	8,4	2,2	84,0	0,3	–	2,5
Toshkent viloyati	100	1,9	17,7	8,1	69,9	–	–	2,4
Farg'ona	100	3,3	15,3	9,8	66,2	0,2	–	5,2
Xorazm	100	5,2	15,2	14,4	61,3	1,2	–	2,7
Toshkent shahri	100	3,1	38,7	4,3	50,7	–	0,3	

Tashqi savdo ijobiy saldosi 854 million AQSh dollariga yetdi. Milliy valyuta- o'zbek so'mi erkin ayirboshlanadigan bo'ldi. Valyuta bozorining liberallashtirilishi natijasida chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalari soni 1,5 barobarga oshdi. Shu bilan birga, davlatning oltin-valyuta zaxiralari 1,1 milliard AQSh dollariga ko'paydi. O'tgan yil davomida mamlakatda 12 ta erkin iqtisodiy zona va 45 ta sanoat zonasi faoliyat boshladi, bu hududlar rivojiga kuchli turtki berdi. Yaqin

kelajakda yana 50 ta sanoat zonasini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Ish o‘rinlari yaratish O‘zbekiston uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

2017-yilda yangi sanoat korxonalari tashkil etilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xizmatlar sohasini kengaytirish hisobiga 336 mingta yangi ish o‘rni yaratildi. Ijtimoiy islohotlar ham tasdiqlangan dasturlar asosida amalga oshirilmoqda. Hukumat yangilangan loyihalar asosida arzon uy-joylar qurib, imtiyozli ipoteka kreditlarini taqdim etmoqda. Katta va kichik shaharlarda namunaviy ko‘p qavatli uy-joylar qurilishi hisobiga 3,5 million kvadrat metr turar joy foydalanishga topshirildi. Uy-joy qurilishi hajmi 2007-yilga nisbatan 20 barobar, 2010-yilga nisbatan 3,5 barobar, 2014-yilga nisbatan esa 2 barobar oshdi. Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rildi. Moliya vazirligi tomonidan Orolbo‘yi hududini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilib, unga 200 milliard so‘mdan ortiq, ya‘ni taxminan 25 million AQSh dollari yo‘naltirildi. Ushbu mablag‘lar Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida suv ta‘minoti hamda aholi yashash sharoitlarini yaxshilashga sarflandi.


## UZBEKISTAN

### Eastern Europe and Central Asia

#### Overall Performance



#### Average Performance by SDG



### 1-rasm. O‘zbekiston Barqaror rivojlanish indeksida 62-o‘rinni egalladi (2025-yil)

Barqaror rivojlanish iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanat uyg‘unligini ta‘minlashni nazarda tutadi. Ushbu jarayonda investitsiyalar asosiy harakatlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlil qilingan jadvallar ma‘lumotlariga ko‘ra, asosiy kapitalga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmining oshib borishi mamlakatda ishlab chiqarish salohiyatining kengayishiga, infratuzilma obyektlarining modernizatsiyasiga hamda hududlar iqtisodiy faolligining kuchayishiga xizmat qilmoqda.

Birinchidan, iqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan, investitsiyalar sanoat, qurilish va xizmatlar sohasida yangi quvvatlarni yaratib, yalpi hududiy mahsulot hajmining ortishiga zamin yaratadi. Xususan, Toshkent viloyati, Toshkent shahri, Namangan va Samarqand viloyatlarida investitsiyalar hajmining yuqori bo‘lishi ushbu hududlarda iqtisodiy o‘sish sur‘atlari nisbatan tezlashayotganini ko‘rsatadi. Sirdaryo viloyatida o‘sish sur‘atining 179 foizga yetgani investitsiyalar hududiy rivojlanishdagi tafovutlarni qisqartirishga xizmat qilayotganini anglatadi.

Xulosa va takliflar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida barqaror rivojlanishni ta‘minlashda davlat investitsiya siyosati yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalar iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishiga, ishlab chiqarish salohiyatining oshishiga va ijtimoiy sohalarning rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, infratuzilma, sanoat va energetika yo‘nalishlariga yo‘naltirilgan



investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, investitsiya siyosatini samarali tashkil etish hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, davlat investitsiya siyosati O'zbekistonda barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Barqaror rivojlanishni yanada mustahkamlash maqsadida davlat investitsiya siyosatini takomillashtirish zarur. Barqaror rivojlanishni ta'minlashda investitsiyalarning rolini yanada kuchaytirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Hududlararo investitsiya muvozanatini kuchaytirish. Investitsiyalar hajmi yuqori bo'lgan Toshkent shahri va Toshkent viloyati bilan solishtirganda ayrim hududlarda nisbatan past ko'rsatkichlar saqlanib qolmoqda. Shu sababli iqtisodiy salohiyati past hududlar uchun maxsus investitsiya dasturlari ishlab chiqish hamda soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish zarur.

2. Ichki investitsiya manbalarini faollashtirish. Aholi va mahalliy tadbirkorlik subyektlari mablag'larining investitsiyalardagi ulushini oshirish maqsadida jamg'arma mexanizmlarini rivojlantirish, kichik biznes uchun imtiyozli kredit liniyalarini kengaytirish hamda moliyaviy savodxonlikni oshirish tavsiya etiladi.

3. Xorijiy investitsiyalarni yuqori qo'shimcha qiymatli tarmoqlarga yo'naltirish. Jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarni asosan qayta ishlash sanoati, raqamli texnologiyalar, "yashil energetika" va innovatsion loyihalarga yo'naltirish orqali iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

4. Ekologik yo'naltirilgan investitsiyalar ulushini ko'paytirish. Atrof-muhitga salbiy ta'siri kam bo'lgan texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalarni rag'batlantirish barqaror rivojlanishning ekologik komponentini mustahkamlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Abulkasimov H., Topildiyev S. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022.
2. OECD. Green Investment Policies: Trends and Opportunities. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2017
3. The World Bank. Annual Report 2021: From Crisis to Green, Resilient, and Inclusive Recovery. Washington, DC: World Bank, 2021. Business College Helsinki ma'lumotlaridan foydalanildi.
4. <https://stat.uz/uz/>- O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2019–2030-yillar davrida "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-4477-sonli qaror. Toshkent, 2019. <https://lex.uz/docs/-4539502>
6. Rajabaliyeva Iroda Alisherovna – Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistenti, [irodaalisherovna820@gmail.com](mailto:irodaalisherovna820@gmail.com)



## THE CONTENT OF INNOVATIVE DEVELOPMENT AT DIFFERENT LEVELS OF THE ECONOMY

**Pardaev Mamayunus Qarshibaevich**

Professor, Samarkand Institute of Economics and Service, Doctor of Economic Sciences.

**Pardaeva Ozoda Mamayunusovna**

Head of Department, Tashkent State University of Economics, Associate Professor, PhD.

**Pardaev Botir Rakhmatullaevich**

Lecturer, International University "Great Silk Road", PhD.

### ABSTRACT

The article analyzes the content of innovative development at different levels of the economy, as well as its importance and interrelation at the micro, meso, and macro levels. Special attention is paid to the role of innovative development in the economy and education sector, as well as to increasing competitiveness through the introduction of modern technologies. The study substantiates the importance of innovative approaches in ensuring sustainable economic growth.

**Keywords:** innovative development, microeconomics, mesoeconomics, macroeconomics, competitiveness, digital economy, education, sustainable development

Инновацион ривожланиш деганда, жамиятнинг ижтимоий- иқтисодий тараққиётини макро, мезо ва микро даражадаги субъектларнинг янги ғоялар, технологиялар ва ёндашувлар асосида инновацион омиллар эвазига узлуксиз ва барқарор тараққий этиш жараёни тушунилади. Бугунги кунда глобллашув жараёнида рақобатнинг кчайган даврида инновацион ривожланиш ўта муҳим омил бўлиб қолмоқда. Чунки янги ғоялар ва технологиялардан фойдаланган ҳолда ривожланмаса орқада қолиб, рақобатда ютқазиб, касодга учраб қолиши тайин. Шу туфайли бундай ривожланишга эришиш учун барча соҳаларда кескин киришмоқ лозим.

Иқтисодиётнинг ривожланиши барча босқичларда ҳам барқарор бўлиши лозим. Акс ҳолда кўзланган мақсадга эришиб бўлмайди. Микро даражани ривожлантириш орқали мезо даражага дахлдор иқтисодиёт ривожланади. Ушбу босқичларнинг ривожланиши макро даражанинг ривожланишини таъминлайди. Шу туфайли инновацион ривожланишни таъминлаш учун иқтисодиётнинг барча босқичларига масъулият билан қарашни тақозо қилади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг макро, мезо ва микро даражадаги субъектларнинг мазмун-моҳиятига тўхталамиз. Чунки булар турли даражада бўлганлиги туфайли, уларга ёндошув ҳам турли бўлади. Микро даража масалага шахс, хўжалик юритувчи субъект, корхона даражасида қаралса, мезо даражага соҳа, тармоқ, худуд, кластер даражасида қаралади. Макро даражада эса, мамлакат ёки жаҳон иқтисодиёти доирасида тадқиқ қилинади. Ушбу тушунчаларни қисқача изоҳи билан таништириб чиқамиз.

Макро даража деганда, иқтисодий, ижтимоий ёки сиёсий жараёнларни бутун мамлакат ёки жаҳон миқёсида таҳлил қилиш даражаси тушунилади. Бунга иқтисодиёт нуқтаи назаридан қарайдиган бўлсак, макро даража миллий ёки глобал миқёсдаги иқтисодиётга оид тизимлар, буларга йўналтирилган умумий қонун-қоидалар ва стратегик кўрсаткичларни қамраб оладиган таҳлил даражани қамраб олади.

Бизнес таҳлилда макро даражада кўриб чиқиладиган асосий масалаларга ялпи ички маҳсулот (ЯИМ)нинг ўсиши, инфляция даражаси, ишсизлик даражаси, фискал ва монетар сиёсат, давлат бюджети ва солиқ тизими, ташқи савдо ва тўлов баланси, миллий валюта барқарорлиги ва ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияларини киритиш мумкин.



Макро даражада қараладиган иқтисодий ўзгаришларга мисоллар тариқасида Ўзбекистон иқтисодиётининг умумий ривожланиш суръатларини, давлат томонидан қабул қилинадиган ислохотлар ва стратегияларни, глобал иқтисодий инқирозларнинг мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётига таъсирини, камбағалликни қисқартириш билан боғлиқ чоратadbирларни келтириш мумкин. Макро даражадаги бизнес-таҳлилнинг аҳамияти бевосита умуммиллий иқтисодий барқарорликни таъминлаш, ривожланишнинг узок муддатли стратегик йўналишларини белгилашда қўлланилиши билан белгиланади.

Ҳозирги кунда макро даражалардаги қарорлар бевосита мезо даражадаги ҳолатлар билан ҳам бевосита боғлиқ. Мезо даражани тўлиқ тушуниш учун ушбу ҳолатга ҳам қисқача тўхталиш мақсадга мувофиқдир.

Мезо даража деганда, таҳлил ёки бошқарувда микро ва макро даражалар орасида жойлашган ўрта даражани, яъни тармоқ, ҳудуд, соҳа ёки ташкилотлар гуруҳи миқёсидаги иқтисодий, ижтимоий ёки бошқарув жараёнларини ифодалайдиган даражадаги субъектлар тушунилади.

Мезо даража мамлакат миқёсида ҳар бир ҳудудларни (вилоятларни) қамраб олаган субъектлар, хусусан, иқтисодиётнинг алоҳида тармоқлари (саноат, қишлоқ хўжалиги, хизмат кўрсатиш кабилар), ҳудудлар (водий, зарафшон воҳаси, жанубий ҳудуд кабилар)

миқёсидаги иқтисодий, ижтимоий ёки бошқарув жараёнларини ифодалайдиган даража ҳисобланади. Мезо даражага янада аниқлик киритиш учун аниқ мисолларни ҳам келтирадиган бўлсак, бунга вилоят миқёсида саноатни ривожлантириш сиёсати, алоҳида иқтисодий тармоқ (масалан, қишлоқ хўжалиги, туризм), турли кластерлар ёки технопарклар фаолиятини киритиш мумкин. Ушбу бўғинда ҳам ҳудудий камбағалликни қисқартириш дастурлари, таълим, соғлиқни сақлаш тизимининг ҳудудий бошқаруви масалалари қаралади.

Микро даражадаги иқтисодиёт деганда, иқтисодиётни энг кичик иқтисодий бирликларни энг қуйи даражасида ўрганиш тушунилади. Унда алоҳида шахслар, уй хўжаликлари, корхоналар ва алоҳида бозорларнинг иқтисодий қарорлари таҳлил қилинади. Ҳозирги шароитда микро даражага қуйидаги субъектлар киради. Булар истеъмолчилар (асосан уй хўжаликлари) ҳисобланади. Бунда даромадни қандай сарфлайди, нима сотиб олади, деган масалалар туради. Иккинчидан, корхоналар (фирмалар) киради. Булар қанча ишлаб чиқаради, қандай нарх қўяди, деган масалага масъулдир. Шунингдек, алоҳида бозорлари ҳам мисол тариқасида киритиш мумкин. Буларга, мева-сабзавот бозори, нон бозори, автомобил бозори кабиларни киритиш мумкин.

Хуллас, микро даражада талаб ва таклиф, нархнинг шаклланиши, ишлаб чиқариш харажатлари ва фойда, рақобат ва монополия, иқтисодий қарор қабул қилиш каби масалалар ўрганилади. Қисқача қилиб айтганда, микро даражадаги иқтисодиёт – бу алоҳида иқтисодий субъектлар бўлиб, ўз фаолиятини таҳлил қиладиган иқтисодий бирлик ҳисобланади.

Микроиқтисодиёт иқтисодиёт фанининг бир бўлими бўлиб, у алоҳида иқтисодий субъектларнинг хулқ-атворини ўрганади. Яъни, яқка истеъмолчилар, фирмалар, ишлаб чиқарувчилар ва бозорларнинг қандай қарор қабул қилиши ва ўзаро таъсирини таҳлил қилади. Бунда харидорларнинг истеъмолчи хулқи, яъни харидор нима учун ва қандай товарни танлайди, фирма фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажми қанча, харажатлар, фойданинг миқдори, нархнинг шаклланиши, бунда талаб ва таклифнинг ўзгариши ўрганилади. Шунингдек, бозор турлари рақобатли бозор, монополия, олигополия, бунда ресурслар тақсимоти, яъни меҳнат, капитал, ердан самарали фойдаланиш кабилар ҳам микроиқтисодиёт фанида ўрганилади. Микроиқтисодиётнинг асосий мақсади чекланган ресурслар шароитида самарали қарорлар қабул қилиш қонуниятларини аниқлашдан иборатлигини ҳам инобатга олиш лозим.



Микроиктисодиётни лўнда қилиб, қисқача айтганда, “якка бозор ва якка қарорлар иқтисодиёти”, деб ҳам аташ мумкин.

Кўриниб турибдики, иқтисодиёт даражалари бир-биридан фарқ қилади. Микро даражадаги иқтисодиётда алоҳида шахс, корхона, фирма фаолияти ўрганилса, мезо даражадаги иқтисодиётда соҳа, тармоқ, кластер, ҳудуд (вилоят, шаҳар) кабиларнинг иқтисодиёти ўрганилади. Макро даражада эса мамлакат ёки жаҳон иқтисодиёти қаралади. Булар маълум даражада илмий ва амалий аҳамиятга ҳам эга. Қуйида микро, мезо ва макро даражаларни солиштирма тарзда қисқа ва аниқ қилиб тушунтириш учун, уларни жадвал шаклида қуйидагича изоҳлашни масадга мувофиқ, деб топдик (1-жадвал).

Агар қисқача қилиб айтадиган бўлсак, микро даражада алоҳида субъектлар қарорини ўрғанади, мезо даража эса, тармоқ ва ҳудуд миқёсидаги жараёнларни қамраб олади, макро даражада бутун мамлакат иқтисодиётини таҳлил қилади

Бугунги кунда иқтисодиётнинг барча даражаларида инновацион ривожланиш объектив заруриятга айланган. Бу қуйидагиларни ўз ичига олади: корхоналар ва ташкилотларда янги технологияларни жорий этиш (рақамлаштириш, автоматлаштириш, AI ва ҳ.к.), илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишларини амалга ошириш, маҳсулот ва инсон капитали сифатини ошириш, бошқарув ва бизнес моделларини замон талабидан келиб чиқиб янгилаш, инсон капитали ва билимга инвестиция киритиш. Агар ушбу тадбирлар амалга оширилса, ушбу субъектда инновацион ривожланиш ҳолати содир бўлади.

Инновацион ривожланишнинг асосий мақсади рақобатбардошликни ошириш, барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш орқали аҳоли фаровонлигини оширишга қаратилгандир.

Инновацион ривожланишнинг мазмунини тушуниш учун иқтисодиёт ва таълим соҳалари мисолида қараб чиқамиз. Иқтисодиёт соҳасида инновацион ривожланиш деганда, ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва бошқарув жараёнларига янги технология ва ғояларни жорий этиш тушунилади. Бугунги кунда иқтисодиётда инновацион ривожланиш ўз ичига рақамли иқтисодиётни, яъни электрон тўловлар, онлайн банк хизматлари, турли платформаларни олади. Саноатда инновациялар роботлаштириш, автоматлаштирилган ишлаб чиқариш, “ақли заводлар” каби йўналишларни қамраб олади. Стартаплар ривожда янги бизнес моделлар (масалан, онлайн савдо, логистика платформалари)ни қамраб олса, яшил иқтисодиётни шакллантириш жараёнида қайта тикланувчи энергия манбалари (қуёш, шамол), энергия тежамкор технологияларда фойдаланилади.

Инновацион ривожланиш масаласини таълим соҳасида таҳлил қиладиган бўлсак, биричи галда ушбу тушунчанинг таърифига ўтиборни қаратамиз. Таълим соҳасида инновацион ривожланиш деганда, ўқитиш усуллари, таълим технологиялари ва бошқарув тизимини янгилаш орқали назарияни амалиёт билан уйғунлигини таъминлаш орқали сифатли таълимни бериш тушунилади. Сифатли таълимга эришиш учун мамлакатимизда анча имкониятлар яратилда ва яратилмоқда. Бу ларга мисол тариқаси рақамли таълимни келтириш мумкин. Бу онлайн дарслар, масофавий таълим платформалари (Moodle, Google Classroom) кабиларни ўз ичига олади. Ҳозирги пайтда фан, технология, муҳандислик, санъат ва математика интеграциялашган ҳолда амалга оширилмоқда. Шунингдек, интерактив усуллардан кейс-стади, лойиҳа асосида ўқитиш, рағбатлантиришлар ҳам амалга оширилмоқда. Яна бир муҳим жиҳат барча соҳаларда Сунъий интеллектдан фойдаланиш орқали шахсийлаштирилган таълим, автоматик баҳолаш кабиларни ҳам эътироф этиш мақсадга мувофиқ.



Инновацион омиллар натижасида таълим сифатини ошириш эвазига талабаларнинг билим сифати ошмоқда, мустақил фикрлаш ва ижодкорлик ривожланмоқда, меҳнат бозори талабига мос кадрлар тайёрланмоқда.

Хулоса ва таклифлар.

Инновацион ривожланиш иқтисодиётда рақобатбардошлик ва ўсишни, таълимда эса — сифатли кадрлар тайёрлашни таъминлайди. Иккала соҳа ўзаро боғлиқ бўлиб, бири ривожланмаса, иккинчиси ҳам самарали бўла олмайди. Буларни инобатга олиб ушбу соҳаларни ривожлантириш бўйича йрим тавсияларни ишлаб чиқдик. Булар:

Биринчидан, иқтисодиётнинг микро даражаси, мезо даражаси ва макро даража ўртасидаги фарқларга аниқ чегара қўйиш билан бирга улар ўртасидаги ўзаро боғлиқликни ва тафовутларни ҳам аниқ кўрсатиб ўтишни ва бунинг учун ушбу мавзуларнинг тушунчаларини ўқув адабиётларига киритишни мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз.

Иккинчидан, иқтисодиёт соҳасида инновацион ривожланишни жадаллаштириш учун ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва бошқарув жараёнларига янги технология ва ғояларни жорий этишни тизимли равишда давом эттириш ҳам мақсадга мувофиқдир.

Учинчидан, инновацион ривожланишни алоҳида таълим соҳасида таъминлаш учун ўқитиш усуллари, таълим технологиялари ва бошқарув тизимини янгилаш орқали назари билимлар билан амалиётнинг уйғунлигини таъминлаш лозимлигидан келиб чиқиб, буларни амалиётга жорий қилиш учун икки томонлама (ҳам назарий, ҳам амалий) сифатли таълимни ривожлантириш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, иқтисодиёт соҳасида инновацион ривожланишнинг жорий қилиниши натижасида меҳнат унумдорлиги ошади, харажатлар камаяди, маҳсулот сифати ошиб, рақобатбардош бўлади, иқтисодий ўсиш барқарорлиги таъминланади. Кўриниб турибдики, буларнинг ҳаммаси мамлакатимизда амлга оширилаётган “Ўзбекистон - 2030” стратегиясида кўзда тутилган вазифаларни бажаришга мўлжалланган.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Жаҳон банки. *Жаҳон тараққиёти ҳисоботи 2020: Глобал қиймат занжирлари даврида савдо ва тараққиёт*. Вашингтон, 2020.
2. Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти. *Осло қўлланмаси 2018: Инновациялар бўйича маълумотларни тўплаш, таҳлил қилиш ва фойдаланиш бўйича тавсиялар*. Париж, 2018.
3. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. *Барқарор ривожланиш бўйича 2030 йилгача кун тартиби*. Нью-Йорк, 2015.
4. Халқаро валюта жамғармаси. *Жаҳон иқтисодиёти ривожланиши истиқболлари*. Вашингтон, 2022.
5. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги. *“Ўзбекистон – 2030” стратегияси*. Тошкент, 2023.
6. Иқтисодиёт соҳасига оид дарсликлар ва илмий мақолалар (микро, мезо ва макроиқтисодиёт бўйича).



## QASHQADARYODA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI

**Raxmatulla Ergashev**

Qarshi davlat texnika universiteti professori, i.f.d.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlari яъни kambag‘allikning kelib chiqish sabablari, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha iste‘mol savati, yashash minimumi, minimal iste‘mol harajatlari miqdorining optimal nuqtasi hamda, kambag‘allik va qashshoqlik chegaralarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish va bunda aholi uchun xususiy tadbirkorlik orqali erishish, hududlarda kambag‘allikni qisqartirishda va aholi daromadlarini oshirib borishda yangicha ishlash, ya‘ni “mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, kundalik hayotida zarur bo‘lgan resurslar uchun yetarli mablag‘ga ega bo‘lmagan kambag‘al, kam ta‘minlangan aholini tadbirkorlikni rivojlantirish asosida kambag‘allikdan chiqarish imkoniyatlari oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** xususiy tadbirkorlik, kambag‘allik, kambag‘allikni qisqartirish, aholi daromadlari, iste‘mol savat, yashash minimumi, minimal iste‘mol, Aholi umumiy daromadlari.

### ВОЗМОЖНОСТИ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В КАШКАДАРЫЕ

**Рахматулла Эргашев**

Профессор Каршинского государственного технического университета, доктор  
экономических наук

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены возможности снижения бедности, то есть причины бедности, потребительская корзина для снижения бедности, прожиточный минимум, минимальная разработка критериев определения оптимальной точки размера потребительских расходов и порогов бедности и бедности, и достижения этого для населения посредством частного предпринимательства, сокращения бедности в регионах и увеличения доходов населения. Представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по новому способу работы, т.е. «развитию предпринимательства в соседства, увеличение возможностей по выводу бедного, обездоленного населения, не имеющего достаточно средств для ресурсов, необходимых для их повседневной жизни, из нищеты на основе развития предпринимательства.

**Ключевые слова:** частное предпринимательство, бедность, сокращение бедности, доходы населения, потребительская корзина, прожиточный минимум, минимальное потребление, совокупные доходы населения.

### OPPORTUNITIES FOR REDUCING POVERTY IN KASHKADARYA

**Rakhmatulla Ergashev**

Professor, Karshi State Technical University, Doctor of Economic Sciences

### ABSTRACT

This article discusses the possibilities of poverty reduction based on the development of private entrepreneurship, namely the causes of poverty, the optimal point of the consumption basket, the subsistence minimum, the amount of minimum consumption expenses for poverty reduction, as well as the development of criteria for determining poverty and poverty lines and the ways to achieve this through private entrepreneurship for the population, a new approach to reducing poverty in the regions and increasing the income of the population, that is, "in the neighborhood" scientifically based proposals and recommendations are presented on the development of entrepreneurship, increasing the opportunities for the poor, low-income population who do not have sufficient funds for the



resources necessary for their daily lives to get out of poverty through the development of entrepreneurship.

**Keywords:** private entrepreneurship, poverty, poverty reduction, population income, consumer basket, subsistence minimum, minimum consumption, Total income of the population.

Milliy va xalqaro hamjamiyat tomonidan ko'plab sa'y-harakatlarga qaramay kambag'allik dunyoda eng keng tarqalgan va davom etayotgan ijtimoiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda dunyoda kambag'allikning kelib chiqish sabablari, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda davom etmoqda.

Jumladan, iste'mol savati, yashash minimumi, minimal iste'mol harajatlari miqdorining optimal nuqtasi hamda, kambag'allik va qashshoqlik chegaralarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish va bunda aholi uchun xususiy tadbirkorlik yo'nalishlariga doir ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida aholi o'rtasida kambag'allikni qisqartirish borasida boshlagan ishlarni yangi bosqichga olib chiqib, "inson – jamiyat – davlat" tamoyili asosida islohotlar qat'iy davom ettirib kelinmoqda. Xususan, bunda hududlarda kambag'allikni qisqartirishda va aholi daromadlarini oshirib borishda yangicha ishlash, ya'ni "mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish" [3], bu ishlarga "tadbirkorlik sub'ektlarini manfaatli hamkorlik asosida jalb qilish va ularga qo'shimcha qulayliklar yaratish" [4] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shu nuqtai-nazardan, kundalik hayotida zarur bo'lgan resurslar uchun yetarli mablag'ga ega bo'lmagan kambag'al, kam ta'minlangan aholini tadbirkorlikni rivojlantirish asosida kambag'allikdan chiqarish imkoniyatlari oshirish masalalari bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Aholi daromadi manbai tengsizligi va kambag'allik bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha D.Rikardo[5], R.Solou[6] kabi ko'plab mumtoz neoklassik iqtisodchilar hamda Nobel mukofoti sohiblari nazariy va empirik tadqiqotlar o'tkazgan bo'lib, ular tomonidan yalpi ichki iste'mol, texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa shu kabi omillar tahlili asosida, kambag'al aholi kam bo'lgan jamiyatlarda, iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lishi nazariy isbotlangan[5]. Kambag'allik, uni aniqlash va qisqartirish bilan bog'liq masalalar bir qator mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar, tadqiqotchi va amaliyotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Ammo shu bilan birga aholi daromadlari tabaqalanishi va kambag'allikni qisqartirishda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy-amaliy jihatlarini yetarlicha tizimli tadqiq etilmaganligi, xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning boy tajribasidan samarali foydalangan holda respublikada kambag'allikni aniqlash va qisqartirish yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqish va uning tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yaqin istiqbolda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi – kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo'ladi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o'sish hisobiga erishiladi", deya ta'kidladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O'zbekistonda 2030-yilgacha eng avvalo, qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Chunki, qashshoqlikni qisqartirishning Xitoy tajribasi ushbu islohotdan muvaffaqiyat qozongan. Bunda qisqa vaqt ichida qashshoqlikni kamaytirish bo'yicha tizimli ishlar boshlandi. Uning amalga oshirilishi qishloq xo'jaligining amaldagi amaliyotini sezilarli darajada o'zgartirdi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga ko'proq erkinlik va imtiyozlar yaratib berdi. Bu esa aholining qashshoqlikdan chiqib, o'z-o'zini ish bilan ta'minlash orqali asosiy iste'mol xarajatlarini qoplashga imkon beradigan aholi daromadga ega bo'lish imkonini berdi.

Hozirgi sharoitda Qashqadaryo mintaqasida kambag'allikni qisqartirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar davomida viloyat aholisining ehtiyojmand qismi manzilli qo'llab-



quvvatlanmoqda, zaruriy ijtimoiy ta'minot bilan qamrab olinmoqda. Ayniqsa, Qashqadaryo mintaqasining geografiyasi va iqlimi, aholining tez o'sib borayotgani va uning zaif ekotizimiga zarar yetkazuvchi iqtisodiy faoliyati tufayli kambag'allar soni ham oshmoqda.

Xususiyl tadbirkorlikni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashning rivojlanish jarayonida, mintaqa yalpi ichki hududiy ulushining ortishida va iqtisodiyotning mazkur sektoridagi bandlik darajasida o'z aksini topdi.

Bizning fikrimizcha, kambag'allikni qisqartirishda xususiyl tadbirkorlikning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini belgilab olish lozim:

- aholigakerakli mahsulot va xizmatlarni aniqlashning marketing tadqiqotlarini o'tkazish ko'nikmasini shakllantirish;
- bozor talabini o'rganish hamda sifatli va hamyonbop mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun kam xarajatli yo'llarni topish va usulini shakllantirish;
- kam ta'minlangan oilalar ehtiyojini aniqlash va shunga mos tovarlar ishlab chiqarish va narxlar kalkulyatsiyasini shakllantirish;
- nisbatan qisqa muddatlarda aholi ehtiyoji uchun zarur tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabni qondira olish qobiliyati;
- dastlabki sarmoya va investitsiyalar hajmining nisbatan kichikroq hajmda ekanligi;
- qisqa muddatda yangi ishchi o'rinlari barpo etish hamda bandlik muammosini hal etishga ko'maklashish imkoniyati;
- biznes g'oya egasining yoki xususiyl tadbirkorning vazifalarini amalga oshirishda bevosita ishtiroki.

Kambag'allikni qisqartirishda xususiyl tadbirkorlikning mintaqada bandlik muammosini hal etish, bozorning mo'l-ko'lligini ta'minlash hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi imkoniyatlarini inobatga olib, bu sohaning rivojlanishiga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o'rin tutmoqda.

Tahlillar ko'rsatishicha, kambag'allikni qisqartirishda xususiyl tadbirkorlikning tashqi iqtisodiy faoliyati asta-sekin kengayib bormoqda. Qashqadaryo viloyatida uning umumiy eksport hajmidagi ulushi 2024-yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 15,9 foizni tashkil etmoqda, bu ko'rsatkich 2005-yilga nisbatan 10,6 foizga oshgan<sup>22</sup>. Ularning asosiy eksport mahsulotlarini - qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, ishlov beruvchi, xalq amaliy san'ati buyumlari tashkil etmoqda.

Ushbu ko'rsatkich, ya'ni mintaqada bandlik darajasining kamayishi quyidagi sabablarga ko'ra vujudga kelgan. Birinchidan, mintaqaning qishloq joylarda xususiyl tadbirkorlik bilan kam shug'ullanishi evaziga; ikkinchidan, aholi o'zini o'zi band qilmasligi hamda boqimandalikka berilganligi; uchinchidan, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va hokazolar.

O'zbekiston Respublikasida pul inflyatsiyasining yiliga 12-15 foiz bo'lgani aholi jon boshiga umumiy daromadlarning xarid qobiliyati pasayib borishiga salbiy ta'sir qilib mamlakatda kambag'allar soni ko'payishining sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Qashqadaryo mintaqasida kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikning rivojlantirilishi natijasida aholining tadbirkorlikdan olayotgan daromadlari salmog'i o'sib bormoqda. Bu yerda biznesning daromadlar manbaini yuzaga keltirishda uning o'rni yuqori darajada baholanib boradi. Boisi, birinchidan, xususiyl sektordagi iqtisodiy faoliyat bozor qoidalariga binoan yuz berib, tabiiy ravishda bozor daromadining ma'lum turini yuzaga chiqaradi. Ikkinchidan, xususiyl ishlab chiqarishda innovatsiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish, talabga tez moslashish va ixtisoslashish orqali daromad topish mexanizmi amal qiladi. Uchinchidan, raqobat muhitining kuchli ekanligi resurslardan samarali foydalanib, mahsulot



tannarxini pasaytirish orqali manfaatdorlikni yuzaga chiqarishga qaratilgan bozor qonunlari uzluksiz amal qiladi. Mamlakatda aholi jon boshiga real umumiy daromadlari viloyatlar kesimida ham bir-biridan farq qiladi .

Aholi umumiy daromadlari tarkibida 2024-yilda respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalar Qashqadaryo viloyatida 16,4 foizni tashkil etdi. Real daromadlarning xarid qobiliyatiga inflyatsiya o'z ta'sirini ko'rsatadi hamda iste'mol tovarlari indeksini o'zgartiradi. Amaliyotda iste'mol tovarlari indeksining o'zgarishi bo'yicha hisoblanadigan inflyatsiya darajasi iste'mol savatchasidagi tovar va xizmatlar narxlarining o'rtacha o'zgarish sur'atlarini aks ettiradi. Iste'mol tovarlar indeksini hisoblashda foydalanilgan tovar va xizmatlar narxi bu mamlakat bo'ylab chakana savdo do'konlaridan olingan o'rtacha narxlar bo'lib, iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlarning umumiy narxlar darajasini keng qamrovda o'lchashga imkon beradi .

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-aprel 250- son "Moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi va unga ko'ra, O'zbekistonda "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi manzilli, har bir shaxs bilan individual va tizimli ravishda muntazam ish olib borishni tashkil qiluvchi moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar bo'yicha mutlaqo yangi tizim tashkil topdi.

"Temir daftar" - ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir hamda sektor rahbarlari tomonidan alohida nazoratga olingan oilalarni qayd etish, muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

Har bir sektor bo'yicha mahallabay "Temir daftar"ga quyidagi toifadagi oilalar kiritiladi:

- kam ta'minlangan oila, deb e'tirof etilgan oilalar;
- ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan a'zolari mavjud oilalar;
- kam ta'minlangan yakka-yolg'izlar va keksalar;
- boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand oilalar;
- ko'p (4 va undan ortiq) farzandli moddiy ko'makka muhtoj oilalar;
- mehnatga layoqatli ishsiz a'zolari mavjud ehtiyojmand oilalar;
- tibbiy yordamga muhtoj ehtiyojmand oilalar (surunkali yoki og'ir nogironlikka olib

keluvchi kasallikka chalingan va nogironlik guruhi belgilanmagan a'zolari mavjud yetarli daromad manbaiga ega bo'lmagan oilalar);

- noturar joylarda istiqomat qilayotgan, o'zi yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy bo'lmagan ehtiyojmand oilalar.

Oilalarning muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlari quyidagi shakllarda:

- boshqaruv ofisi tomonidan birlashtirilgan mahallalarda fuqarolar yig'inlari xodimlari, doimiy vakillar va mahalla faollari bilan birgalikda barcha yo'nalishdagi muammolarni uyma-uy yurish orqali;

- ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalarning murojaatlarini ko'rib chiqish orqali;

- ehtiyojmand oilalarni o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalari orqali o'rganiladi.

Jumladan, Qashqadaryo viloyatida xizmatlar jami 60393 kishiga ko'rsatilgan, ishga joylashganlar 17129 nafar, jamoat ishiga jalb etilganlar 16912 nafar, kasbga o'qitilganlar 8340 nafar, subsidiyalar olganlari 4516 nafar, ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar 13496 nafarni tashkil etdi (1-jadval).

**1-jadval**

**Oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida**



**“Temir daftar”ga kiritilganlar soni (2024 yilda)<sup>23</sup>**

	Ko‘rsatkichlar	Nafar
1	Oilalar soni	195
2	Oila a‘zolari soni	916
3	Mehnatga layoqatli ishsizlar soni	229
4	Shundan, bandligi ta‘minlangan	176 (76,8%)

1-jadvalda oilalarni qo‘llab-quvvatlash uchun “Temir daftar”ga kiritilganlar soni keltirilgan, bunda ushbu daftarga 195 oila, 916 oila a‘zolari, mehnatga layoqatli ishsizlar soni 229 nafar, shundan 176 nafari, ya‘ni mehnatga layoqatli ishsizlarning 76,8 foizining bandligi ta‘minlangan.

**2-jadval**

**Qashqadaryo viloyati Nishon tumani MFYlarida kambag‘al oilalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi, “Temir daftar”dan chiqarilganlar bo‘yicha ma‘lumotlar (2024-yil)<sup>24</sup>**

№	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lcho v birligi	Kambag‘al oila xususiy tadbirkorlik bilan		Farqi (+, -)
			shug‘ullangan- ga cha	shug‘ullangan- dan keyin	
1	Kambag‘al oilalar	oila	195	195	-
-	shu jumladan, 5 va undan ortiq farzandi bor oilalar	oila	109	109	-
2	Kambag‘allikdan chiqqan oilalar	soni	0	122	122
3	O‘rtacha bitta oilaga to‘g‘ri keladigan oila a‘zolari	kishi	6	6	-
4	Jami oila a‘zolari	kishi	916	916	-
5	Oilada mehnatga layoqatli ishsiz	kishi	229	229	-
6	Bandligi ta‘minlangan	kishi	-	176	+176
7	Oila yer tomorqasi uchun berilgan bepul resurslar miqdori	ming so‘m	128700	128700	-
8	Oilaning xususiy tadbirkorlik uchun olgan bank kreditlari	ming so‘m	-	545870,0	+545870
9	O‘rtacha bitta oilaga to‘g‘ri keladigan daromad	ming so‘m	11245,0	26885,5	+15640

2-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyati Nishon tumani “Kimyogar”, “Kaptarli”, “Nishon” va “Guliston” MFYlarida kambag‘al oilalarni qo‘llab-quvvatlash



maqsadida kambag'al oilalarni xususiy tadbirkorlik bilan band qilish natijasida oila yer tomorqasi uchun berilgan bepul resurslar miqdori 128700 ming so'mni tashkil etib, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish natijasida o'rtacha bitta oilaga to'g'ri keladigan daromad miqdori 15640 ming so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin. "Temir daftar"ga kiritilgan 195 oiladan 122 tasi kambag'allikdan chiqarildi. Daromad manbai 1,5-2 baravarga ega bo'ldi. "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va mahalliy viloyat hokimliklar tomonidan dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun yangi o'zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlarida 0,1 gektardan 1 gektargacha yer ajratish, ajratilgan yer maydonlarini sug'orish tizimi (arteziyan quduqlar, tomchilatib sug'orish tizimi va boshqalar) va elektr energiyasi bilan ta'minlash, berilgan yerlarni o'zlashtirish uchun (yer haydash, urug', ko'chat xarid qilish va boshqalar) subsidiya ajratish ishlari amalga oshirildi.

Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida xususiy tadbirkorlik dasturlari orqali tadbirkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun kredit olish istagida bo'lgan oilalarga tijorat banklariga ajratilgan kredit mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan quyidagi xizmatlar ko'rsatiladi:

biznes loyihalarni hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzishni o'rgatish;

xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kredit olishga ko'maklashish;

kredit ajratilgandan so'ng kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar tadbirkorligini rivojlantirishni doimiy qo'llab-quvvatlash.

Ushbu tadqiqotimizni monografik kuzatuv natijasida Nishon tumani "Guliston" MFYda yashovchi kambag'al oila Ibragim Saidov misolida ko'rib chiqdik (3-jadval).

3-jadvalda ko'rsatilganidek, Qashqadaryo viloyati Nishon tumani "Guliston" MFYda yashovchi kambag'al oila Saidov Ibragim Qushoqovichning jami oila a'zolari 8 kishidan iborat bo'lib mehnat layoqatli 3 kishini tashkil etib, 2022 yilda oila xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanganligi evaziga 31500 ming so'm daromad olgan yoki shug'ullanmagan oilaga nisbatan 16920 ming so'm ko'pdir.

Kreditlar "Temir daftar"ga kiritilgan va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish

Kreditlar "Temir daftar"ga kiritilgan va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishga yo'naltiriladi. Xalq deputatlari Nishon tumani Kengashi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatlar asosida "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarga "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'lari hisobidan bir martalik moddiy yordam berildi.

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani "Temir daftar"ga kiritilgan, uy-joyini ta'mirlashga muhtoj oilalarga ko'maklashish sektor rahbari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

### 3-jadval

**Qashqadaryo viloyati Nishon tumani "Guliston" MFYda yashovchi kambag'al oila Saidov Ibragim Qushoqovichning kambag'allikdan chiqish bo'yicha ma'lumotlari (2022-yil)<sup>25</sup>**

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Kambag'al oila xususiy tadbirkorlik bilan		Farqi (+, -)
			shug'ullangunga cha	shug'ullangandan keyin	



1	Oila a'zolari	soni	8	8	-
2	Oilada mehnatga layoqatli ishchi	soni	3	3	-
3	Oilada ish bilan band bo'lganlar soni	soni	-	3	+3
4	Oila tomorqasi uchun berilgan bepul resurslar	ming so'm	3300,0	3300,0	-
5	Oila xususiy tadbirkorlik uchun olgan kredit	ming so'm	-	9900	+9900
6	Jami oila daromadlari	ming so'm	14580	31500	+16920

Tahlillarga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida kambag'allik darajasi yuqori bo'lib, keyingi yillar davomida amalga oshirilgan islohotlar aholi kambag'allik darajasida yetarli o'zgarishlarga sharoit yaratmagan. Mintaqaviy kambag'allikni qisqartirish siyosatini ishlab chiqib va muntazam monitoringni amalga oshirish zaruriyatga aylanmoqda.

1. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mintaqada aholi daromadlarini oshirishning manbalaridan biri bo'lib va boshqa manbalar oylik maosh, mulkdan keladigan va tomorqa xo'jaligidan olinadigan daromadlar tez sur'atlar bilan o'smoqda. Qashqadaryo viloyatida aholi jon boshiga real umumiy daromadlari yil sayin o'sib bormoqda.

2. Qashqadaryo viloyati aholi jon boshiga daromadlar darajasiga qarab 3 ta hududga ajratildi: Birinchi hudud: aholi jon boshiga eng yuqori daromadli hududlar. Bu hududlarga Qarshi, Kasbi, G'uzor, Yakkabog' va Shahrisabz tumanlari kirib, viloyat umumiy aholisining 35 foizi istiqomat qiladi. Nisbatan sanoat ishlab chiqarishi yuqori darajada rivojlangan. Foydali qazilmalarga boy. Ushbu hududda aholi jon boshiga daromadlar miqdori 15,1 million so'mdan 25,3

million so'mga yetadi. Ikkinchi hudud: aholi jon boshiga o'rtacha daromadli hududlar. Bu hududlarga Muborak, Chiroqchi, Dehqonobod va Kitob tumani xonadonlari kiradi. Ushbu hududlarda respublika umumiy aholisining 40,3 foizdan ortig'i istiqomat qilib, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi rivojlanmoqda. Aholi jon boshiga daromadlar miqdori 10,3 million so'mdan 14,9 million so'mga yetadi. Uchinchi hudud: aholi jon boshiga kam daromadli hududlar. Bu hududlarga Qamashi, Mirishkor, Ko'k-dala va Nishon tumanlari xonadonlari kiradi Ushbu hududlarda viloyat umumiy aholisining 24,7 foizdan ortig'i istiqomat qiladi. Aholi jon boshiga daromadlar miqdori 9,5 million so'mdan 13,2 million so'mga yetadi.

3. Aholi farovonligini oshirishning muhim sharti aholi muayyan daromadga hamda takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lishi kerak. Aholi daromadi pul va natura shaklida bo'lib, turli manbalardan shakllanadi. Qashqadaryo viloyatida daromadlar manbaini yuzaga keltirishda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o'rni yuqori darajada bo'lishi kutilmoqda.

4. Aholi daromadlarini oshirishda o'zini o'zi band qiluvchilarni, ayniqsa o'ta yuqori malaka va katta boshlang'ich kapital talab qilmaydigan tomorqachilik ko'lamini yanada kengaytirish zarur. Qishloq oilalarini xususiy tadbirkorlikka jalb qilish uchun amaldagi fermerchilikka muqobil tarzda kichik yer xo'jaliklari sinfini, ya'ni tomorqachilar kooperatsiyasini shakllantirish kerak.



Tomorqa va dehqon xo'jaliklari mahsuloti eksporti to'la erkinlashtirilishi lozim. Ishsiz bo'lgan yoshlar, daromadi oz bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga har bir tumanda 200-250 gektar yerlarni 15-30 sotixdan bo'lib berish zarur. Natijada kambag'al qatlam qisqarib, o'z daromadiga ega bo'ladi, yoshlar ish bilan ta'minlanib bozorlar to'kinligiga erishiladi.

5. Qashqadaryo viloyatida aholi farovonligining ta'minlanishi aholi daromadlari va zaruriy ehtiyojlarni qondirish, iste'mol darajasi va tarkibi, uy-joy, toza ichimlik suvi, tabiiy gaz, suv, elektr energiyasi bilan ta'minlanganlik, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi ko'rsatkichlar bilan o'lchanadi. Har bir tumanda aholi farovonligining yaxshilanishi orqali kambag'allikning qisqarishiga asta-sekin yo'l ochiladi.

6. Qashqadaryo viloyatida aholi farovonligini bugungi kun talablari darajasida, deb bo'lmaydi. Zamonaviy texnologiyaga asoslangan pullik xizmat sifatli, biroq aholi daromadiga nisbatan qimmat narxlarda xizmat ko'rsatiladi. Natijada barcha aholi ham bu xizmatlardan foydalana olmaydi.

7. Qashqadaryo viloyatida o'z-o'zining bandligini ta'minlagan kambag'al oilalar bandligini kafolatlash tizimini (grantlar e'lon qilish, o'z-o'zining bandligi faoliyatini rag'batlantirish, imtiyozli moliyalash va hokazo) ishlab chiqish zaruratga aylanmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. The World Bank. <https://www.worldbank.org/en/topic/poverty>. Accessed Jan. 13, 2022.
2. Jahon banki ma'lumotlari asosida <https://www.worldbank.org/en/topic/poverty/overview#1>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16 avgustdagit 450-son "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo'yicha namunaviy konsepsiyani tasdiqlash to'g'risida" qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12 iyundagi PF-93-son "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni.
5. Ricardo David (1817) On the Principles of Political Economy and Taxation. Piero Sraffa (Ed.) Works and Correspondence of David Ricardo, Volume I, Cambridge University Press, 1951, p. 135. 33;
6. Solow, Robert M. (February 1956) "A contribution to the theory of economic growth". Quarterly Journal of Economics. 70 (1): 65-94.
7. doi:10.2307/1884513. 34;
8. R.X.Ergashev «Aholi daromadlarini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlari», – Samarqand: «Servis» jurnali – 2022, № 3 – B. 66-72.



## **QASHQADARYO VILOYATIDA AGROTURIZM SOHASIDA AHOI BANDLIGINI OSHIRISH**

**Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li**

Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
assistenti

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur ma'ruzada Qashqadaryo viloyatida agroturizm sohasini rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Hududning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat resurslari tahlil qilinib, agroturizm faoliyatining bandlikka ta'siri baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, agroturizm qishloq hududlarida yangi ish o'rinalari yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil ekani asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** agroturizm, aholi bandligi, Qashqadaryo viloyati, qishloq hududlari, xizmatlar sohasi.

## **ПОВЫШЕНИЕ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В СФЕРЕ АГРОТУРИЗМА В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**

**Аликулов Хумоюн Тохир угли**

Докторант Каршинского государственного технического университета Ассистент  
Университета экономики и педагогики

### **АННОТАЦИЯ**

В данной работе исследуются вопросы повышения занятости населения за счет развития агротуризма в Кашкадарьинской области. Проанализированы природные, социально-экономические и трудовые ресурсы региона, а также влияние агротуристической деятельности на уровень занятости. Результаты исследования показывают, что агротуризм является важным фактором создания новых рабочих мест, повышения доходов населения и обеспечения устойчивого развития сельских территорий.

**Ключевые слова:** агротуризм, занятость населения, Кашкадарьинская область, сельские территории, сфера услуг.

## **INCREASING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN THE FIELD OF AGROTOURISM IN KASHKADARYA REGION**

**Aliqulov Humoyun Tohir ogli**

Doctoral Student, Karshi State Technical University Assistant, University of Economics and  
Pedagogy

### **ANNOTATION**

This paper examines the issues of increasing employment through the development of agrotourism in the Kashkadarya region. The natural, socio-economic and labor resources of the region are analyzed, and the impact of agrotourism on employment is assessed. The study shows that agrotourism plays a significant role in creating new jobs, increasing rural incomes, and ensuring sustainable regional development.

**Keywords:** agrotourism, employment, Kashkadarya region, rural areas, service sector.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinalari yaratish hududiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Viloyat aholisi tarkibida qishloq aholisi ulushining yuqoriligi, mehnat resurslarining ko'pligi va tabiiy-iqlim sharoitlarining xilma-xilligi agroturizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, an'anaviy qishloq xo'jaligi faoliyati bandlik masalasini to'liq hal eta olmayotgani agroturizmni muqobil daromad va bandlik manbai sifatida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Qishloq hududlarida aholi bandligini ta'minlash va barqaror daromad manbalarini yaratish bugungi iqtisodiy

rivojlanishning ustuvor vazifalaridan biridir. Qashqadaryo viloyatida qishloq aholisi ulushining yuqoriligi va mehnat resurslarining ko'pligi agroturizmni rivojlantirish uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Agroturizm qishloq xo'jaligi va turizm faoliyatini uyg'unlashtirgan holda, aholi bandligini oshirishning muqobil mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda<sup>31</sup>. Qashqadaryo viloyatining agroturizm salohiyati. Qashqadaryo viloyati chorvachilik, bog'dorchilik, uzumchilik va polizchilik yo'nalishlari rivojlangan hudud hisoblanadi. Viloyatning tog'oldi va qishloq hududlarida ekologik toza mahsulotlar yetishtirilishi agroturizm xizmatlarini tashkil etish uchun qulay sharoit yaratadi<sup>32</sup>. Ayniqsa, oilaviy fermer xo'jaliklari va tomorqa yerlarida turistik xizmatlar ko'rsatish imkoniyati mavjud.



**1-rasm. Agroturizm faoliyati aholi bandligini quyidagi yo'nalishlarda oshirish imkonini beradi<sup>33</sup>.**

Agroturizm va aholi bandligi o'rtasidagi bog'liqlik. Agroturizm faoliyati aholi bandligini quyidagi 1-rasmdagi yo'nalishlarda oshirish imkonini beradi. Mazkur faoliyatlar nafaqat doimiy, balki mavsumiy bandlikni ham ta'minlab, qishloq aholisi daromadlarini diversifikatsiya qiladi.

Agroturizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Agroturizm qishloq hududlarida bandlikni oshirish bilan bir qatorda, aholi daromadlarining ko'payishiga va migratsiya jarayonlarining qisqarishiga xizmat qiladi<sup>34</sup>. Ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun uy sharoitida ishlash imkoniyatlarining yaratilishi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Agroturizmning rivojlanishi Qashqadaryo viloyatida quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- yoshlar va ayollar bandligining oshishi;
- ichki va tashqi mehnat migratsiyasining qisqarishi;
- qishloq infratuzilmasining rivojlanishi;
- mahalliy byudjet tushumlarining ko'payishi.



## 2-rasm. Agroturizm faoliyatining aholi bandligiga ta'siri<sup>35</sup>.

Mavjud muammolar va cheklovlar. Shu bilan birga, agroturizm orqali bandlikni oshirishda bir qator muammolar mavjud:

- malakali kadrlar yetishmasligi;
- moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi;
- infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- marketing va reklama faoliyatining sustligi<sup>36</sup>.

Agroturizm sohasida aholi bandligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va mavjud muammolarni tizimli baholash maqsadida SWOT tahlil usulidan foydalanildi. Ushbu usul Qashqadaryo viloyatining ichki va tashqi omillarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.



**3-rasm. Qashqadaryo viloyatida agroturizm orqali aholi bandligini oshirishning SWOT tahlili<sup>37</sup>.**

### XULOSA

Ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar:

Qashqadaryo viloyatida agroturizm sohasini rivojlantirish aholi bandligini oshirishning samarali va barqaror mexanizmi hisoblanadi. Hududning tabiiy va mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish orqali qishloq aholisi farovonligini oshirish va iqtisodiy faollikni kuchaytirish mumkin.

Ilmiy-nazariy takliflar:

- 1) agroturizmni hududiy bandlik siyosatining alohida yo'nalishi sifatida konseptual asoslash;
- 2) agroturizm va qishloq bandligi o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlikni baholash metodikasini ishlab chiqish.

Amaliy tavsiyalar:

- a) Qashqadaryo viloyatida agroturizm klasterlarini tashkil etish;
- b) oilaviy va kichik agroturizm subyektlari uchun imtiyozli kreditlar joriy etish;
- c) agroturizm bo'yicha qisqa muddatli o'quv va trening dasturlarini yo'lga qo'yish;
- d) hududiy agroturizm mahsulotlarini raqamli platformalar orqali targ'ib qilish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharifxo'jayev M. Agroturizm asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlari, 2023-yil.
3. World Tourism Organization (UNWTO). Tourism and Employment. Madrid, 2022.
4. Qodirov A.A. Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning o'rni // Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2022, №4.
5. Самиева, Г. Т., & Аликулов, Х. Т. (2023). НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН И ПЕРЕХОД В «ЗЕЛЕНУЮ ЭКОНОМИКУ». Экономика и социум, (11 (114)-1), 994-998.



6. Samieva, G. T., & ugli Alikulov, K. T. (2024). MINTAQADA “YASHIL IQTISODIYOT” ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O ‘SISHNI TA’MINLASH MASALALARI. THE INNOVATION ECONOMY, 4(04).
7. Aliqulov, H. (2023). YASHIL IQTISODIYOT. KELAJAK IQTISODIYOTING ASOSI. Nashrlar, 474-477.
8. Alikulov, K., & Tokhir, K. (2024). Milliy “yashil iqtisodiyot” taksonomiyasi. THE INNOVATION ECONOMY, 2(1).
9. Tohir o‘g‘li, A. H. (2025). AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI. IZLANUVCHI, 1(9), 93-96.
10. Aliqulov, H. (2025). DIFFERENCES BETWEEN TRADITIONAL AND GREEN ECONOMIC MODELS. International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 1012-1015.
11. Tohir o‘g‘li, A. H. (2025). “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. BILGI ÇEŞMESI, 1(5), 39-43.



## TABLE OF CONTENTS

<b>№</b>	<b>AUTHORS</b>	<b>PAGES</b>
1.	<b>IN DEVELOPING COUNTRIES NEW APPROACHES TO RECYCLING IN THIER ECONOMY COSTS AND FINANCING MECHANISMS</b> Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna	5-10
2.	<b>IMPROVING METHODS FOR INCREASING PRODUCT EXPORTS THROUGH THE DIVERSIFICATION OF INDUSTRIAL ENTERPRISES' ACTIVITIES</b> Omonova Nafisa Qahramon qizi	11-13
3.	<b>PERSONALIZING GUEST EXPERIENCE AND IMPROVING MANAGEMENT EFFICIENCY THROUGH AI AND DIGITAL TECHNOLOGIES</b> Mukhamedova Mukharram Suratovna	14-16
4.	<b>DYNAMICS AND STATISTICAL ANALYSIS OF THE NUMBER OF CULTURAL INFRASTRUCTURE INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN</b> Sultonova Yulduzhon Kamoldinovna	17-22
5.	<b>LEGAL REFORMS IN THE PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP SECTOR IN UZBEKISTAN: CONTENT AND OUTCOMES</b> Eshkuvatova Pokiza	23-29
6.	<b>ANALYSIS OF FINANCIAL STABILITY, ASSET GROWTH AND CREDIT PORTFOLIO OF "UZBEK INDUSTRIAL AND CONSTRUCTION BANK"</b> Tillashayxov Muhammadrizo Muxiddin ugli	30-34
7.	<b>ENTREPRENEURSHIP IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN</b> Maftuna Ortiq qizi Ashurova Mohira Odiljonovna Olimova	35-38
8.	<b>THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES TO THE ANALYSIS OF EFFICIENCY EVALUATION INDICATORS IN SERVICE ENTERPRISES</b> A.N. Kholiqulov	39-42
9.	<b>SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL ISSUES OF EVALUATING EFFICIENCY THROUGH IMPROVING SERVICE QUALITY IN SERVICE ENTERPRISES</b> A.N. Kholiqulov	43-46
10.	<b>FACTORS INFLUENCING CHANGES IN THE ROLE OF THE SERVICE SECTOR IN DEVELOPED COUNTRIES</b> A.N. Kholiqulov	47-50
11.	<b>DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF TOURISM AND HOTELS IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY</b> A.N. Kholiqulov	51-53
12.	<b>ANALYSIS OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER BY REGIONS OF THE REPUBLIC</b> A.N. Kholiqulov	54-57
13.	<b>ASSESSMENT OF THE IMPACT OF 'GREEN' FOREIGN INVESTMENT PROJECTS ON THE FINANCIAL STABILITY OF SERVICE ENTERPRISES</b> Tursunkulov Shokhrukh	58-63



14.	<b>THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA TECHNOLOGIES IN THE TRANSFORMATION OF BANKING SERVICES</b> Xidirnazarov Sirojiddin Choriyevich Usmonov Sardorbek Beg'amovich Normamatov Ne'mat Daminovich Panjiyeva Muslima Olim qizi	64-69
15.	<b>THE ROLE OF DIVERSIFICATION PROCESSES IN STRUCTURAL TRANSFORMATION OF A REGIONAL ECONOMY: EVIDENCE FROM SURXONDARYO REGION</b> Jurayeva Safargul	70-75
16.	<b>GREEN INVESTMENTS AND THEIR ROLE IN THE NATIONAL ECONOMY</b> Qulmamatova Barno Omonovna Sharifova Nargiza Djurayevna Normamatov Ne'mat Daminovich Xakimov Faxritdin Abdusattorovich	76-79
17.	<b>THE TRANSFORMATION MODEL OF THE DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN AND THE MECHANISMS FOR ITS DEVELOPMENT: EXISTING CHALLENGES AND WAYS TO OVERCOME THEM</b> Abruyeva Khilola Sherbekovna	80-84
18.	<b>ADVANTAGES OF USING ANTIFRAUD METHODS IN PREVENTING FRAUD</b> Pardayev Mamayunus Qarshibayevich Mamayunusov Bekzot Orifovich	85-88
19.	<b>THE ROLE OF STATE INVESTMENT POLICY IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT</b> Abdurakhmanova Aqida Fayzulla qizi Sharipboyev Husanboy Marks ogli	89-94
20.	<b>THE CONTENT OF INNOVATIVE DEVELOPMENT AT DIFFERENT LEVELS OF THE ECONOMY</b> Pardaev Mamayunus Qarshibaevich Pardaeva Ozoda Mamayunusovna Pardaev Botir Rakhmatullaevich	95-98
21.	<b>OPPORTUNITIES FOR REDUCING POVERTY IN KASHKADARYA</b> Rakhmatulla Ergashev	99-106
22.	<b>INCREASING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN THE FIELD OF AGROTOURISM IN KASHKADARYA REGION</b> Aliqulov Humoyun Tohir ogli	107-111
<b>OUTLINE</b>		<b>112-113</b>